

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI  
O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**XO`JANOVA SARVINOZ BOBONAZAROVNANING**

“5220100 – Filologiya (O`zbek filologiyasi)” yo`nalishi  
bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

***O`ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BAYRAM  
NOMLARINING O`RGANILISHI***

mavzuida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: dots. E. Jabborov**

“Himoyaga tavsiya etildi”  
Filologiya fakulteti dekani  
\_\_\_\_\_ dots. I.Xudoynazarov  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_2013

**Qarshi shahri – 2013**

## **MUDARIJA**

|                                            |          |
|--------------------------------------------|----------|
| <b>KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....</b> | <b>3</b> |
|--------------------------------------------|----------|

### **I BOB. O‘ZBEK XALQ BAYRAMLARI NOMLARINING SHAKLLANISHI VA O‘RGANILISH TARIXI**

|                                                                  |    |
|------------------------------------------------------------------|----|
| 1.1. O‘zbek tilshunosligida bayram nomlarining o‘rganilishi..... | 8  |
| 1.2. O‘zbek xalq bayramlari nomlarining shakllanish tarixi.....  | 21 |
| Bob bo‘yicha xulosa.....                                         | 23 |

### **II BOB. O‘ZBEK XALQ BAYRAMLARI NOMLARINING TEMATIK TASNIFI**

|                                                                 |    |
|-----------------------------------------------------------------|----|
| 2.1. A‘anaviy bayram nomlari tematik guruhi.....                | 23 |
| 2.2. Milliy bayram nomlari tematik guruhi.....                  | 28 |
| 2.3. Kasbiy bayram nomlari tematik guruhi.....                  | 29 |
| 2.4. Mehnat bayramlari nomlari tematik guruhi .....             | 29 |
| 2.5. Madaniyat va sport bayramlari nomlari tematik guruhi ..... | 32 |
| 2.6. Tabiat bayramlari nomlari tematik guruhi .....             | 36 |
| 2.7. Diniy bayram nomlari tematik guruhi .....                  | 38 |
| Bob bo‘yicha xulosa.....                                        | 42 |

### **III BOB. O‘ZBEK XALQ BAYRAMLARI NOMLARINING LEKSIK QATLAMLARI, ULARNING STRUKTURASI VA DERIVATSION XUSUSIYATLARI**

|                                                                     |    |
|---------------------------------------------------------------------|----|
| 3.1. Tarixiylik jihatdan bayram nomlari tasnifi.....                | 43 |
| 3.2. O‘zbek xalq bayramlari nomlarining derivatsion xususiyati..... | 45 |
| 3.3. O‘zbek xalq bayramlari nomlarining strukturasi.....            | 47 |
| Bob bo‘yicha xulosa.....                                            | 48 |

|                    |           |
|--------------------|-----------|
| <b>XULOSA.....</b> | <b>49</b> |
|--------------------|-----------|

|                                                |           |
|------------------------------------------------|-----------|
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b> | <b>51</b> |
|------------------------------------------------|-----------|

## KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida shakllangandan beri ilm-fan, milliy madaniyatimizning har bir sohasida, ta’lim-tarbiya tizimida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. “Istiqlol yillarida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda”, - deya ta’kidlagan edi Prezidentimiz Islom Karimov<sup>1</sup>.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zbek tilining qadimiy va boy tillardan biri ekanligini ta’kidlagan holda “...ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”<sup>2</sup> ligini ham ko‘rsatib o‘tadilar.

Prezidentimiz fikrlaridan kelib chiqib ta’kidlash joizki, o‘zbek tilshunosligi fani oldida hali hal etilishi kerak bo‘lgan muammolar juda ko‘p. Ana shu muammolardan biri o‘zbek tili bayram nomlari tadqiqi masalasidir. Bu ko‘hna zaminimizda umr guzaronlik qilgan ota-bobolarimizdan hozirga qadar turli bayramlar o‘tkazib va tashkil etib kelingan. O‘zbek tilshunosligida bayram nomlari to‘laligicha tadqiq etilganicha yo‘q. Shunday ekan, ushbu masalani ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganish mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekona bayram nomlari turli darajada, turli yo‘nalishlarda tadqiq etib kelingan. Bunda, avvalo, bayramlar va ularning nomlari qayd etilgan “Avesto” kabi qadimiy manbalarda, xalq poetik ijodi namunalarida zuhurlangan birliklarni qayd etib o‘tish joizdir. Qadimiy bayram nomlari Abu Rayhon Beruniy tomonidan maxsus o‘rganilgani ham soha leksemalari tarixini tadqiq etishda ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi tayin.

---

<sup>1</sup> Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. –B.86.

<sup>2</sup> Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. –B.87.

O'zbekona bayramlar tarixshunoslik, madaniyatshunoslik, falsafiy yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Bu manbalar soha leksemalarini tadqiq etish uchun muhim material vazifasini o'tashi mumkin. Ayniqsa, U.Qoraboyev, M.Sattor kabi olimlarning madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan amalga oshirgan ishlari, chop ettirgan kitoblari masalaning lisoniy jihatini o'rganishda material vazifasini bajardi.

O'zbek tilshunosligida bayram nomlari tadqiqga bag'ishlangan ishlar sanoqli. U.Islomovning ayna shu soha terminlari tabiati va yasalishiga bag'ishlangan maqolalari bayram nomlari tadqiqiga bag'ishlangan dastlabki ish sanaladi.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Bitiruv-malakaviy ishning asosiy maqsadi o'zbek tili bayram nomlarini kompleks tarzda o'rganish, bu sohada bajarilgan ishlarni tadqiq etishdan iboratdir. Ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kun tartibiga qo'yilgan:

- o'zbekona bayram nomlarining shakllanish jarayonini tadqiq etish;
- o'zbek tili bayram nomlari birliklarini qadimiy yozma manbalarda aks etish jarayonlarini yoritish;
- o'zbekona bayram nomlari va ular bilan bog'liq til birliklarining mavzuiy guruhlarini ishlab chiqish;
- o'zbekona bayram nomlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarni ilmiy asosda o'rganish;
- o'zbekona bayram nomlari birliklarining strukturaviy tuzilishini aniqlash va ilmiy tahlil etish;
- o'zbekona bayram nomlarining lug'aviy (ma'naviy) xususiyatlarini yoritish;
- o'zbekona bayram nomlarining lug'aviy qatlamlarini aniqlash va tadqiq etish;
- o'zbekona bayram nomlarining yasaliş xususiyatlarini tadqiq etish kabilar.

**Ishning metodologik asosi va tekshirish metodlari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liq qarashlari hamda dialektik

falsafaning keng tarqalgan tadqiq usullari ishning metodologik asosini tashkil etadi. Mavzuni yoritishda o'zbek tilshunosligi fani qo'lga kiritgan yutuqlardan keng foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tavsiflash, qiyosiy-tasnifiy, komponent tahlil usullariga murojaat qilindi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** O'zbek tilining bayram nomlari ilk bor kompleks tarzda ilmiy asosda tadqiq etildi.

**Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ish natijalari uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, madaniyat kasb-hunar kollejlarida hamda madaniyat institutlarida shu mutaxassislikni o'rganayotgan o'quvchi va talabalarga qo'l keladi. Shuningdek, ish natijalaridan madaniyat va san'at xodimlari keng foydalanishlari mumkin.

**Ishning hajmi va tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki maxsus bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 52 sahifani tashkil etadi.

## **I BOB. O‘ZBEK XALQ BAYRAMLARI NOMLARINING SHAKLLANISHI VA O‘RGANILISH TARIXI**

### **1.1. O‘zbek tilshunosligida bayram nomlarining o‘rganilishi**

Insoniyat paydo bo‘libdiki, quvonch va tashvish unga hamroh. Shaxslarning quvonchli kunlari xursandchilik sifatida nishonlangan. Bu xursandchilik onlari bayram sanalgan. Shu boisdan bayram nomlari tarixi va tadqiqi masalasini juda qadimgi davr manbalaridan izlash mumkin. Zero, bayram yordamida insoniyat o‘z hayotidagi eng xursandchilik damlarini shodiyona bir tarzda, tantanavorlik asosida nishonlashga harakat qilishgan. Odamzod hayotidagi bu quvonchli kunlar keyinchalik bayram sifatida o‘rin egallagan.

O‘zbek xalq bayramlarini etnografik yo‘nalishda o‘rgangan professor Usmon Qaraboyevning yozishicha, “hanuzgacha o‘rganilmay kelinayotgan o‘zbek xalq bayramlari uzoq va boy tarixga ega. Agar tarixchi-madaniyatshunos olimlarning bayram inson bilan birga paydo bo‘lgan va rivojlangan degan fikrlariga tayansak, bayramlar kurtaklarini eng qadimiy paleolit davridan, ya’ni O‘rta Osiyoda odam zoti paydo bo‘la boshlagan – 500 ming yil avvalgi vaqtdan izlasa bo‘ladi. Bu yarim million yil doirasidagi inson hayoti, madaniyati, odatlari jiddiy tadqiqotlarni kutmoqda”<sup>3</sup>.

Darhaqiqat shunday. O‘zbek xalq o‘yinlari tarixiy-etnografik, madaniyatshunoslik kabi yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Hatto madaniyatshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha talabalar uchun darslik ham yaratilgan. Bayram nomlari tadqiqi masalasi esa o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. To‘g‘ri, bu borada tadqiqotchi U.Islomovning ishlari mavjud. U respublika yosh olimlarining an‘anaviy konferensiyalarida “O‘zbekona bayram nomlari

---

<sup>3</sup> Qaraboyev U. O‘zbekiston bayramlari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1991. -6-bet.

haqida” hamda “O‘zbekona bayram nomlarining sintaktik usul bilan yasashiga doir” deb nomlangan tezislarini chop ettirgan<sup>4</sup>.

Bayram nomlari tadqiqi xususida gapirganda professor U.Qoraboyevning ishlarini alohida qayd etishga to‘g‘ri keladi. Olimning “O‘zbekiston bayramlari” deb nomlangan darsligida respublikamizda bugungi kunda keng nishonlanib kelinayotgan bayramlarning tarixiy ildizlariga ham nazar tashlaydiki, bu biz tadqiq etmoqchi bo‘lgan bayram nomlari uchun katta material beradi. Bundan tashqari, darslikda bayram nomlari ma’lum bir tamoyillar asosida alohida guruhlariga ajratilgan va ularning o‘ynalish tartiblari xususida keng ma’lumotlar berilgan. Lekin ushbu darslik bevosita madaniyatshunoslik xarakterida bo‘lib, bayram nomlarining lisoniy xususiyatlari undan o‘rin olmagan.

U.Qoraboyevning “Tabiat bayramlari” nomli ishida ham xalqimiz hayotidan o‘rin olgan tabiatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq anchagina bayramlar xususida so‘z yuritiladi<sup>5</sup>. Bu asar ham bayram nomlarini o‘rganish uchun qo‘l keladi.

O‘zbekistonda urf bo‘lgan bayramlar xususida M.Sattorning “O‘zbek udumlari” deb nomlangan etnografik xarakterdagi ishida ham qimmatli ma’lumotlar keltiriladi<sup>6</sup>. Ushbu manba ham biz tadqiq etayotgan masala uchun material bo‘lib xizmat qila oladi.

Bayram nomlari haqidagi ma’lumotlar folklorshunoslikka oid manbalarda ham uchraydi. Masalan, professor B.Sarimsoqovning “O‘zbek marosim folklori” deb nomlangan kitobida xalqimizning marosimlari xususida so‘z yuritilar ekan, marosim bilan bog‘liq bayramlar ham qayd etiladi<sup>7</sup>.

O‘zbek xalq bayramlari nomlari bir qator lug‘atlardan ham o‘rin olganini qayd etish joiz. Masalan, besh jildi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, o‘n ikki jildli “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” singari lingvistik va qomusiy lug‘atlardan bayramlarga oid bir qator so‘z, atama va birikmalarni olish, ilmiy tadqiqqa jal etish mumkin.

---

<sup>4</sup> Islomov U. O‘zbekona bayram nomlari haqida. Shu muallif. O‘zbekona bayram nomlarining sintaktik usul bilan yasashiga doir. // Respublika yosh tilshunoslarning an‘anaviy konferensiyasi tezislari. – Toshkent: Fan, 1995. -65-67-betlar.

<sup>5</sup> Qoraboyev U. Tabiat bayramlari. – Toshkent: Mehnat, 1988.

<sup>6</sup> Mahmud Sattor O‘zbek udumlari. –Toshkent: Fan, 1993. –B. 90-123.

<sup>7</sup> Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. –Toshkent: Fan, 1986.

Bayram nomlari keyingi yillarda o'zbek tili darsliklaridan ham o'rin oldi. Bu bayramlar xalqimizning milliy mentalitetini belgilovchi vositalardan biri ekani bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, N.Mahmudov, A.Nurmonov va boshqalar tomonidan yaratilgan "Ona tili" 6-sinf darsligida atoqli otlar mavzusi o'rganilar ekan, atoqli otlarning ma'noviy guruhlari qatorida bayram nomlari ham qayd etiladi va ularni o'rganish uchun ma'lum bir o'quv soati ajratilgan<sup>8</sup>. Darslikda bayram nomlarining yasalishi va imlosi bilan bog'liq ilmiy tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirish ko'zda tutilgan.

Bayram nomlarining o'rganilishi xususida so'z yuritayotganda shuni ham ta'kidlash o'rinliki, bayramlarni o'rganish va tadqiq etish juda qadim zamonlardan boshlangan. Bunday da'vomizga dalil sifatida eng qadimgi yozma manbaimiz sanalgan "Avesto"da bir qator bayramlar haqida so'z yuritilganligi, mashhur bobomiz Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida turkiy va boshqa xalqlarning eng qadimiy bayramlari xususida keng ma'lumotlar keltirilganligini ko'rsatish mumkin. Bu esa bayram nomlarining tadqiq ham ana shu davrlardan boshlangan deyishimizga asos bo'la oladi.

## **1.2. O'zbek xalq bayramlari nomlarining shakllanish tarixi**

Tadqiqotchi U.Islomovning ta'kidlashicha, o'zbek tilida ikki yuzga yaqin bayram nomlari mavjud va bu nomlarning aksariyati qadimiy tarixga ega<sup>9</sup>. Haqiqatan ham o'zbek tilida mavjud bo'lgan bayram nomlari uzoq kechmishga ega.

Professor U.Qoraboyevning fikricha, bayramlar tarixi ibtidoiy jamoa davrlariga borib taqaladi<sup>10</sup>. Olim o'z kitobida bayramlarni quyidagi mavzular ostida o'rgangani ham fikrimizning isbotidir:

- ibtidoiy davrlarda paydo bo'lgan bayramlar;
- islomgacha bo'lgan davrdagi bayramlar;

---

<sup>8</sup> Mahmudov N., Nurmonov A. Va boshq. O'zbek tili. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent, 2012.

<sup>9</sup> Islomov U. O'zbekona bayramlarning nomlari haqida, 66-bet.

<sup>10</sup> Qoraboyev U. Ko'rsatilgan manba, 6-bet.

- o'rta asrlardan sho'rolargacha bo'lgan davrda paydo bo'lgan bayramlar;
- sho'rolar davrida paydo bo'lgan bayramlar<sup>11</sup>.

Bayramlarning bu tarzdagi tasnifi ular nomlarining paydo bo'lishi va shakllanishi xususida so'z yuritishga imkon beradi deb o'ylaymiz. Shuning uchun ham bayram nomlarining paydo bo'lishi va shakllanish tarixini ma'lum bir davr nuqtai nazaridan o'rganish to'g'riroqdir. U.Qoraboyev bergan ma'lumotlar asosida bayram nomlarining shakllanish tarixini quyidagi tartibda o'rganishni ma'qul topdik:

1. Ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lgan bayram nomlari.
2. VII-VIII asrlargacha bo'lgan davrda yaralgan bayram nomlari.
3. VIII-XX asrlarda paydo bo'lgan bayram nomlari.
4. O'zbekistonning mustaqilligidan keyingi davrda paydo bo'lgan bayram nomlari.

Quyida ularni alohida sarlavhalar ostida tadqiq etishga harakat qilamiz.

### ***1.2.1. Ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lgan bayram nomlari***

Bir qator olimlar bayramlar insoniyat tomonidan ijod qilingan eng qadimgi an'analar va udumlardan iborat ekanini yozadilar. Masalan, D.M.Genkinning ta'kidlashicha, "bayramlarning chuqur ildizi insoniyatning go'daklik davriga borib taqaladi". M.I.Baxtin esa "bayram – insoniyat madaniyatining boshlang'ich shakli" deya ta'kidlaydi<sup>12</sup>. Ko'rinadiki, bayram nomlari ham bayramning o'zi singari qadimiy bo'lib, katta taraqqiyot bosqichini o'tagan.

Madaniyatshunos, tarixshunos va o'lkashunos olimlarning ta'kidlashlaricha, bayramlarning yaralishiga tabiatda yuz bergan o'zgarishlar, masalan, fasllarning almashinib kelishi, kun bilan tunning almashinishi yoki ularning tenglashishi, insoniyatning kundalik mashg'uloti, diniy e'tiqodi va boshqa qator holatlar asos vazifasini o'tagan. Ularning nomlari ham ana shu holatlarga mutanosib tarzda tanlangan va insoniyat nutqidan mustahkam o'rin olgan.

---

<sup>11</sup> Qoraboyev U. O'sha yerda.

<sup>12</sup> Qoraboyev U. Ko'rsatilgan manba, 6-bet.

Bayramlarni maxsus o'rgangan va madaniyatshunoslik mutaxassisligi talabalari uchun darslik yaratgan U.Qoraboyevning fikricha, eng qadimgi bayramlar va ular nomlarining yuzaga kelishi ovchilik kasbi bilan bog'liqdir. Bizga ma'lumki, eng qadimgi avlodlarimiz ovchilik orqali tirikchilik o'tkazgan. Ov mahsulotlari iste'mol qilinishi bilan birga, yovvoyi hayvonlar terisi kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak va hatto qadimgi o'tovlarning tomini yopish uchun yopinchiq vazifasini o'tagan. Ovdan o'lja bilan qaytish ibtidoiy to'da a'zolari uchun shodlik damlarini tuhfa etgan. Bu xursandchilik bayramona nishonlagan. Jamoaning katta-kichigi o'z xursandchiligini o'yinlar, turli xatti-harakatlar orqali ifodalagan.

Ayrim olimlar eng qadimgi bayramlar va ular nomlarining paydo bo'lishida totemlar katta o'rin tutganini ta'kidlashadi. Masalan, Y.P.Belousovning yozishicha, "eng qadimiy va ommaviy bayramlar qatoriga eng avvalo, zoofagik bayramlarni kiritish mumkin"<sup>13</sup>.

Turli millat va elatlar turli hayvon hamda parrandalarni totem sifatida tanlashgan. Masalan, *ayiq, kiyik, sigir, bug'u, ot, it, bo'ri; burgut, qarg'a, lochin* kabilar. Ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, qadimgi odamlar turli hayvonlarga taqlid qilib, ularning terisini ustlariga yopinib o'ynashgan. Bu qadimgi xalqlarning o'ziga xos bayramlari sanalgan. Yana bir narsani e'tirof etish kerakki, totemistik hayvonlar muqaddas sanalgan va ular bayramlardagina ovlangan. O'sha davrda paydo bo'lgan bayramlarning nomi ham muqaddaslashtirilgan totemistik hayvon nomlari bilan atalgani xususida ma'lumotlar bor.

Masalan, Yer yuzining shimoliy qismida qadimgi bayram nomlaridan biri – *ayiq bayrami* nomi bilan atalgan. Olimlarning ma'lumotiga ko'ra bu bayram kechki paleolit davrlarida paydo bo'lgan. Markaziy Osiyoda ham ayiq bayramlari nishonlangan deya uqtirishadi olimlar.

Qadimda dehqonchilik paydo bo'lgan davrlarda dehqonlar hayotida qish chekinib, bahor kelishi, kunlarning isishi, yerga birinchi urug' qadalgan kun, hosil yig'ishtirib olingan kunlar eng quvonchli daqiqalar sanalgan va ular o'ziga xos

---

<sup>13</sup> Белоусов Я.П. Генезис, социальная сущность без религиозных форм празднования. –Алма-Ата, 1971. –С. 5-6.

bayram bilan nishonlagan. Chorvadorlar hayotida ham fasllarning almashinishi, chorva mollari uchun mo'l o'simliklarning o'sish pallasi va boshqa jihatlar muhim o'rin tutadi. Bular ham o'z davrida bayram qilingani shubhasiz. Lekin ular haqida ilmiy manbalarda, qadimgi yozma manbalarda ma'lumotlar deyarli saqlanib qolinmagan.

Insoniyatning ibtidoiy jamoa davrida nishonlagan bayramlaridan yana biri manbalarda "*orgaistik bayramlar*" nomi bilan tilga olinadi. Ushbu bayram shunisi bilan diqqatga sazovorki, erkak va ayol bayram kuni o'ziga juft tanlash imkoniga ega bo'lgan. Ilmiy manbalarda erkaklikka o'tish marosimi (bayrami) o'tkazilgani to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Yigitning erkak sifatida tan olinishi uchun maxsus sinovlardan o'tishi kerak bo'lgan. Sinovlardan o'tgan yigit erkaklikka qabul qilingan. U shundan so'ng ovga chiqish, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritgan.

Eng qadimgi odamlar tabiatda bo'ladigan o'zgarishlarni anglab yetmaganlar. Olimlar totemistik, animistik, politeistik, magik marosim va bayramlar odamlar tabiat hodisalarini tushunmaganligi oqibatida paydo bo'lganini ta'kidlaydilar. Bunday marosim va bayram izlari hozirda ham respublikamizning bir qator hududlarida saqlanib qolgan. Masalan, "Sust xotin", "Choy momo", "Y, Haydar", "Qurbonlik" singari marosimlarda buni kuzatish mumkin.

Olimlarning ayrimlari bayramlar marosimlardan kelib chiqqan degan fikrlariga tayanadigan bo'lsak, qadimda *sust xotin*, *choy momo*, *yo haydar* singari bayramlar bo'lgan va ularning nomi xalq tilida qo'llanilgan.

### **1.2.2. VII-YIII asrlargacha bo'lgan davrda yaralgan bayram nomlari**

Markaziy Osiyo xalqlarining o'troq hayotga o'ta boshlashi ular bayramlarida ham muhim iz qoldirgan. Yangicha bayramlar insoniyat hayotidan o'rin ola boshlagan. Demakki, yangi bayram nomlari ham iste'molda qo'llanila boshlagan.

Islomgacha bo'lgan davrdagi eng qadimgi bayram nomlarini "Avesto"da uchratamiz. Asarda bayon etilganidek, dunyo asosini ikki kuch – yaxshilik va yomonlik tashkil etadi. Yaxshilik ilohasi Axuramazda va yovuz kuchlar ilohasi

Axriman o'rtasida hamisha kurash ketadi. O'sha davr odamlari har ikki ilohga ham sig'inganlar. Bizga ma'lumki, zardushtiylar quyosh (olov), suv, yer va havoga sig'inganlar. Ularga bag'ishlab marosimlar o'tkazganlar. Bu marosimlar esa o'ziga xos bayramlarning paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Qadimgi bayram nomlari mashhur allomalar asarlarida ham tilga olinadi. Masalan, Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida bir qator xalqlarning urf-odatlarini, marosimlari bilan bir qatorda bayramlari xususida ham qimmatli ma'lumotlar bor. Bu asar qadimgi davrda yashagan xalqlarning bayramlari nomlarini tadqiq etishda eng ishonchli ilmiy manba vazifasini o'taydi.

Beruniyning keltirishicha, Qadimgi Xorazm va Sug'd davlatlarida noshonlagan bayramlar *Navro'z*, *Romush og'am*, *mohirj*, *nikh og'am*, *amexvora*, *boboxvora*, *nim sarda*, *bod amkom* singari nomlar bilan atalgan.

Olimning qayd etishicha, sug'diylar mavsard oyining birinchi kunini *Navro'z* sifatida nishonlaganlar. Shu kuni kun bilan tun tenglashgan. Mavsard oyining 28-kuni esa *Romush og'am* degan nom bilan bayram qilingan. Shu kuni sug'diylar otashxonalarda to'planib, hayit o'tkazganlar. Bundan tashqari, sug'diylarning kalendari bo'yicha niysanj oyining 12-kuni *mohirj bayrami*, basokanj oyining 7-kuni *nikh og'am*, 15-kuni *amsxvora* (*olov tegmagan narsalarni yeyish hayiti*), *ashnxnda oyining 18-kuni boboxvara* (uzum suvinim ichish hayiti), f-g'-kon oyining 1-kuni *nim sarda* (yarim yil) bayrami, j-sh-n-m oyining oxirida esa *o'lganlarga aza tutish hayiti* o'tkazilgan.

Qadimgi xorazmliklarning ham o'ziga xos bayramlari bo'lgan. Buni Beruniy bergan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Olimning yozishicha, navsarji oyida yil boshi, ya'ni *Navro'z* nishonlangan. X-r-v-dod oyining birinchi kuni issiq kiyimlarni yechish bayrami sanalgan *arijo-suvon bayrami* o'tkazilgan. *Giri oyining o'n beshinchi kuni olovda isinish bayrami*, ya'ni *ajg'or* nishonlangan. A-x-sh-r-v-i-r oyining birinchi kuni *f-g'b-r-ix* yoki *fa-g'-r-u-ba bayrami*; umri oyining birinchi kuni yog'lik non yeyish kuni – *azdokandxvor* bayrami; shu oyning o'n uchinchi kuni yil yarmi – *chiri-ruj* bayrami; rim-j-d oyining o'n beshinchi kuni *minakecha*

bayrami; ispondarmaji oyining to‘rtinchi kuni *xej* bayrami; shu oyning o‘ninchi kuni *vaxshangom* bayrami, shu oyning yigirmanchi kuni esa *inga* bayrami nishonlangan<sup>14</sup>.

Beruniy qayd etgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, bayramlarning katta qismi ma’lum bir marosim, insonlarning e’tiqodi va sig‘inishi orqali yuzaga kelgan. Masalan, *minakecha* bayram nomining paydo bo‘lishida erta baharda yuz bergan sovuqda halok bo‘lgan ayolni xotirlash marosimi o‘tkazilgani bilan bog‘lanadi. Bu marosim keyinchalik bayram sifatida nishonlagan. *Vaxshangom* bayram nomi esa suvga e’tiqod qilish marosimi bilan bog‘lanadi.

Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida sug‘dlarning *mohirj, nikh og‘am, amsxvora, boboxvara, nim sarda* kabi bayramlari nomlari tilga olingan bo‘lsa, Qadimgi Xorazmda esa *arijo-suvon, ajg‘or, f-g‘b-r-ix* yoki *fa-g‘-r-u-ba, azdokandxvor, chiri-ruj, minakecha, xej, yaxshangom, inga* singari nomlarda bayramlar o‘tkazilgani aytiladi.

Beruniy asarida keltirilgan bayramlar nomlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) tabiiy voqealarga bag‘ishlangan bayram nomlari: *yil boshi, ya‘ni navro‘z, ochilish bayrami, gulxanda isinish bayrami, yog‘lik non yeyish bayrami* kabi;
- 2) diniy marosimlar tufayli yaralgan bayram nomlari: *arvohlar ruhini yodga olish*.

Qadimgi Eron, Xorazm va Sug‘d davlatlarida yil boshi, fasllar yoki oylarning boshida turlicha bayramlar o‘tkazilgan. Abu Rayhon Beruniy asarida bu haqda ham qimmatli ma’lumotlar bor. Asarda keltirilishicha, yoz oyining boshlanishi *farvardin moh*, kuz faslining boshlanishi *tir moh*, bahor faslining boshlanishi esa *diy moh* deb atalgan. Ana shu sanalar bilan bog‘liq bayramlar o‘tkazilgan. Ulardan hozirgacha navro‘z va mehrjon bayramlari nomi bizgacha yetib kelgan. Navro‘z yilning boshlanishida o‘tkaziladigan bayramdir. Zero navro‘z fors-tojikcha so‘z bo‘lib, nav – yangi, ro‘z esa kun demakdir. Kuz

---

<sup>14</sup> Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-tom. –Toshkent: Fan, 1968. -252-b.

faslining boshi, ya'ni kun bilan tunning teng kelishida o'tkaziladigan ikkinchi bayram nomi mehrjondir.

Ilmiy, badiiy, publitsistik manbalarda navro'z xususida turlicha ma'lumotlar qayd etiladi. Masalan, zardushtiylar davridagi manbalarda, jumladan, "Avesto"da Axuramazda bilan Axrimanning uzluksiz kurashi Axrimanning yengilishi bilan yakunlanadi va xuddi shu kuni, ya'ni bahorning birinchi kunini bayram sifatida nishonlaydilar. Bu bayram hozirgi navro'z nishonlanadigan kunga to'g'ri keladi. Boshqa afsonalarga ko'ra Odam ato bilan Momahavo uchrashgan kun muqaddas sanalgan. Bu kun ham aynan navro'z nishonlanadigan kunga to'g'ri keladi.

Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida esa shoh Jamshidning taxtiravon yasatib, unga o'tirgan holda osmonu falakka chiqqan kun bayram, ya'ni navro'z sanalgan. Buyuk shoir xuddi shu kundan navro'z boshlanganini madh etadi. Alisher Navoiyning "Tarixi mulki Ajam" ("Ajam mamlakatlari tarixi") asarida shoh Jamshid ixtiro qilgan kashfiyotlardan biri navro'z ekanligi qayd etiladi.

Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ham navro'zning paydo bo'lishi shoh Jamshidga bog'liqligi qayd etilgan. Olimning fikricha, shoh Jamshid o'ziga arava yasab, unga chiqib oladi va jinlar va shaytonlar yordamida havoga ko'tarilib, bir kunda Dunbovandin (Damovand tog'i) Bobilga yetib boradi. Odamlar bu ajoyib manzarani ko'rib, shu kunni hayit qiladilar va shoh Jamshidga taqlid qilib arg'imchoqlar yasab uchadilar<sup>15</sup>.

Yuqorida keltirilgan faktlardan ko'rinib turibdiki, qadimgi xalqlar navro'zning paydo bo'lishi va bayram sifatida nishonlanishini shoh Jamshidga borib taqaydilar. Uzoq kechmishga borib taqalgan bu bayram xususida tarixiy manbalarda qayd etilishicha, axmoniylik hukmronligi davrida (miloddan avvalgi 6-asrlarda) keng nishonlangan. Ana shu manbalarga tayangan olimlar navro'z nomining kelib chiqishini yigirma olti asr va undan ortiq deb e'tirof etadilar.

Qadimgi manbalarda keltirilishicha, navro'z bir necha kun nishonlangan va ularning har biri alohida nomlar bilan atalgan. Masalan, zardushtiylar taqvimiga

---

<sup>15</sup> Beruniy A.R. Ko'rsatilgan manba, 254-bet.

ko'ra fevral oyining birinchi kuni *kichik navro'z* deb yuritilgan. Oltinchi kuni esa *katta navro'z* boshlangan. Sosoniylar davriga kelib bu ikki navro'z birlashtirilgan, kichik va katta navro'z oralig'idagi kun bitta nom bilan navro'z deb yuritila boshlangan.

Abu Rayhon Beruniy navro'z bir oy davomida bayram qilinganini yozadi: "*Keyingi podshohlar bu oy, ya'ni farvardin mohning barchasi (kunlari) ni hayitga aylantirib, ularni oltiga taqsim etdilar. Birinchi besh kun podshohlar uchun, ikkinchisi ulug' kishilar uchun, uchinchisi podshohlarning g'ulomlari uchun, to'rtinchisi xizmatkorlari uchun, beshinchisi xalq ommasi uchun, oltinchisi cho'ponlar uchun*"<sup>16</sup>.

Beruniyning ushbu asarida navro'zdan tashqari, Markaziy Osiyo xalqlari hayotidan keng o'rin olgan *vaxshangom*, *tirgon*, *mehrjon* singari katta bayramlar xususida ham qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Qadimgi Xorazmda ispondormoji oyining birinchi kuni *vaxshangom* deb nomlanib, qutlug' bayram sifatida nishonlangan. Shu kuni odamlar Vaxsh va Jayxun daryolari, Hazar (Kaspiy) dengiziga borib kun bo'yi cho'milganlar, o'zlarini poklaganlar. Suvda sho'ng'ish va suzish bo'yicha musobaqalar uyushtirilgan.

Kuz oylarida nishonlangan bayramlardan biri *tirgon* deb atalgan. Bizga ma'lumki, tir va tirama (tiramoh) atamalari kuz ma'nosida ham qo'llaniladi. Beruniyning yozishicha, *tirgon* atamasining asos qismi (tir) dahufazlik, dehqonchilik bilan bog'liqdir. Dahufazlik so'zining ma'nosi dunyoni saqlash, uni qo'riqlash va dunyoda hukmdor bo'lish. Dehqonchilik so'zining ma'nosi esa dunyoni obod qilish, ekin ekish va dunyoni taqsim qilish (ya'ni ikki egizak bo'lib, dunyo shular bilan obod va doimo barqaror bo'ladi, uning buzugligi tuzaladi) deganidir, deya izohlanadi<sup>17</sup>.

Mehrjon ham kuzda nishonlanadigan bayramlardan. Tirgon kuz fasli boshida nishonlangan bo'lsa, mehrjon kuz oxirida, ya'ni hosil yig'ib olingandan so'ng

---

<sup>16</sup> Beruniy A.R. Ko'rsatilgan manba, 257-268-betlar.

<sup>17</sup> Beruniy A.R. Ko'rsatilgan manba, 260-bet.

nishonlangan. Bayram nomi manbalarda *mehrjon*, *mehrchoh* sifatida qayd etiladi. Nomning asosi (mehr) sevgi, quyosh singari lugʻaviy maʼnolarga ega.

Mehrjon Qadimgi Xorazmda *chiri-ruj*, sugʻdlarda esa *nim sarda* deb atalgan. Mehrjon kun bilan tunning tenglashgan kunida nishonlanadigan bayramlardandir. Qadimda odamlar sovuq kunlar chekinib, issiqning boshlanishini navroʻz sifatida bayram qilgan boʻlsalar, issiq kunlar chekinib, sovuqning boshlanishini mehrjon sifatida nishonlaganlar. *Nimsarda* sugʻd tilidagi soʻz boʻlib, yil yarmi degan maʼnoni anglatadi.

Qadimda tabiat neʼmatlari, yaʼni hosil pishib yetilishi bilan bogʻliq bayramlar koʻp boʻlgan. Shunday bayramlardan biri *boboxvara* deb yuritilgan. Sugʻdlar ashi-x-ida oyining oʻn sakkizinchi kunini shunday atashgan va bayram qilishgan. Boboxvara nomining lugʻaviy maʼnosi uzum suvini ichish deganidir. Demak bu bayram uzumlar pishib yetilgan vaqtda nishonlangan.

Ashi-x-ida oyining yigirma oltinchi kuni esa *garm-xvara* deb atalgan bayram nishonlagan. Atamaning maʼnosi uzum yeyish deganidir.

Qadimda suv va olovga sigʻinish orqali ham bayramlar paydo boʻlgani xususida maʼlumotlar bor. Masalan, Buxoroda odamlar novsard oyining yigirma sakkizinchi kuni otashxonalarda toʻplanib *romushogʻom* bayramini oʻtkazganlar. Romushogʻom soʻzining maʼnosi olovda isinish deganidir. Zardushtiylar bu bayramni *sada* deb nomlaganlar. Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida keltirilishicha, bu bayramning paydo boʻlishi Eron shohi Hushang bilan bogʻliqdir, olovni goʻyo Hushang kashf etgan emish<sup>18</sup>.

Markaziy Osiyo davlatlarida islomgacha boʻlgan davrda mavjud boʻlgan bayramlar orasida ayollar nishonlagan bayramlar ham mavjudligi haqida qimmatli maʼlumotlar bor. Isfandarmoʻz oyining beshinchi kuni shunday bayramlardan biri nishonlagan. Bayram nomi shu oy nomi bilan *isfandarmoʻz* deb yuritilgan. Beruniy bergan maʼlumotlarga koʻra ayollar shu kuni oʻz erlaridan qimmatli tuhfarlar qabul qilishgan.

---

<sup>18</sup> Firdavsiy A. Shohnoma. – Toshkent: Adab. va sanʼat nashr., 1975. – 52-53-betlar.

Isfandarmo‘z so‘zining lug‘aviy ma‘nosi aql, mulohaza deganidir. Manbalarda ko‘rsatilishicha, nomusli, soliha, eriga vafodor xotinga vakil qilingan farishta ham Isfandarmo‘z nomi bilan atalgan<sup>19</sup>.

Ayollar nishonlagan bayramlardan yana biri *мурдодангон* deb yuritilgan. Bu bayram murod oyining yettinchi kuni nishonlangan. Murdodangon so‘zining ma‘nosi o‘limsiz, mangu hayotdir. Bu bayram tinchlik bayramidir.

Xullas, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida islomgacha bo‘lgan davrda nishonlangan bayramlar ko‘p bo‘lgan. Bu bayram nomlari qadimgi yozma manbalarda, “Avesto” hamda Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida uchraydi.

### **1.2.3. VIII-XX asrlarda paydo bo‘lgan bayram nomlari**

VII-VIII asrlardan boshlab Markaziy Osiyo xalqdari hayotida islom aqidalari kirib kela boshlagan. Bu, shubhasiz, arab xalifaligining bosqinchilik yurishi bilan bog‘liqdir. Xalqimizning musulmon dinini qabul qilishi, Quroni karim aqidalari va arkonlariga tayanish natijasida xalq hayotida diniy bayramlar kirib kela boshladi.

Ma‘lumki, islom dinida ikkita katta diniy bayram mavjud. Ularning birinchisi *qurbon hayiti* (*Iyd-al-akbar*) bo‘lsa, ikkinchisi *ro‘za hayiti* (*Iyd-al-fitr*) dir. Qurbon hayiti arab mamlakatlarida yetti kun bayram qilinsa, Markaziy Osiyoda uch kun nishonlanadi. Ularning har biri alohida nomlanadi. Masalan, *arafa* deb nomlangan udum hayitdan oldin o‘tkaziladi. Arafa atamasining o‘zi yana ikkiga ajratiladi: *yolg‘on arafa*, *chin arafa*. Qurbon hayitiga ikki kun qolganda *yolg‘on arafa* nishonlangan, bir kun qolganda esa *chin arafa* o‘tkazilgan. Uchinchi kun hayit deb nomlangan.

Ko‘rinadiki, qurbon hayiti bilan bog‘liq quyidagi so‘z va atamalar o‘zbek tilida keng qo‘llanilgan: *qurbon*, *qurbonlik*, *qurbon namozi*, *hayit*, *hayitlik*, *arafa*, *yolg‘on arafa*, *chin arafa* kabilar.

Ro‘za hayiti ham uch kun nishonlanadi. Bu bayram bilan bog‘liq quyidagi nomlarni keltirish mumkin: *ro‘za*, *ro‘za namozi*, *hayit*, *hayitlik* kabi.

---

<sup>19</sup> Qoraboyev U. Ko‘rsatilgan manba, 21-bet.

Bundan tashqari, islom bilan bog'liq boshqa bayramlar ham mavjud. Ularga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: *me'roj*, *ashuro*, *laylatul-qadr*, *mavlud*<sup>20</sup> kabilar.

*Me'roj* rajab oyida nishonlanadigan bayram nomi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da so'zning quyidagi lug'aviy ma'nolari zikr etilgan:

**ME'ROJ** (*a.* –parvoz, yuqoriga ko'tarilish) din. Osmonga, arsh-a'loga, xudoning oldiga chiqish (Muhammad payg'ambarning Quddusdagi Aqso masjididan osmonga ko'tarilishi)<sup>21</sup>.

*Ashuro* – Imom Husaynni xotirlash kuni sanaladi.

*Laylatul-qadr* – taqdir kechasi yoki qadr kechasi. Ro'za oyida nishonlanadigan bayram.

*Mavlud* – Muhammad payg'ambar tug'ilgan kunida o'tkaziladigan bayram nomi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da so'zning quyidagi ma'nosi qayd etilgan:

**MAVLUD** (*a.* –tug'ilgan; tug'ilish) 1 Tug'ilgan kun va shu munosabat bilan beriladigan ziyofat. *Mavlud to'yi*.

2 *din*. Muhammad payg'ambarning tug'ilgan kuni va uning sharafiga beriladigan ziyofat; payg'ambarning shunday ziyofatda o'qiladigan tarjimai holi. *Eshon, imomlikdan tashqari... mavlud o'qir edi*. P.Tursun, O'qituvchi<sup>22</sup>.

Bu bayramlarning asosiy qismi mustabid sho'rolar zamonida ta'qiqlangan, nishonlash bekor qilingan edi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng diniy bayramlarni ham nishonlash yo'lga qo'yildi. Bunda Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning katta hissasi bor.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 3 iyulda qabul qilgan "Bayram kunlari haqida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 131-moddasiga muvofiq *ro'za hayiti (iyd-al-fitr)* – diniy bayramning birinchi kunida, *qurbon hayiti (iyd-al-adho)* ham diniy bayramning birinchi kunida

---

<sup>20</sup> Mahmud, Sattor. O'zbek udumlari. – Toshkent: Fan, 1993. -102-bet.

<sup>21</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Ikkinchi jild. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -586-bet.

<sup>22</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Ikkinchi jild. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -517-bet

nishonlanadigan bayramlar qatoriga kiritildi. Shu kunlari dam olish kuni deb belgilandi<sup>23</sup>.

Bundan tashqari, XX asr oxirlarida respublikamiz hududida nishonlanib kelingan bir qator bayramlar nomlari ilmiy, adabiy manbalarda uchraydi. Masalan, bahor, yoz va kuz fasllarida nishonlangan bayram nomlari: *navro'z, sumalak sayli, dalaga qo'sh chiqarish, darveshona, qizil gul sayli, lola sayli, sumbula sayli, qovun sayli, xirmon to'yi, paxta bayrami, qizil karvon* kabilar bo'lsa, qish faslida *qurultoy, hosil to'yi, archa bayrami//yangi yil* singari bayramlar o'tkazilgan.

Ana shu bayramlar bilan bog'liq ayrim so'z, atama va birikmalar haqida qisqacha to'xtalishga harakat qilamiz.

*Sumalak sayli* – erta bahorda nishonlanib kelingan bayram nomi. Bayram ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lib, birinchisi sumalak tayyorlash jarayonini ifoda etsa, ikkinchisi sumalakxo'rlik, ya'ni pishirilgan sumalakni dasturxonga tortib tanovul etishni bildiradi. Bu bayram bilan bog'liq ko'pgina so'z, atama va birikmalarni qayd etish mumkin: *bug'doy, bug'doy o'stirish, maysa, maysani maydalash, maysa suvini suzg'ichdan o'tkazish, qaynatish, sumalak pishirish, o't yoqish, kapkir bilan kovlash, sumalak suzish* va boshqalar.

Ko'klam kelishi bilan dehqonlar dalalarga qo'sh chiqarganlar, yerga urug' sepib, dehqonchilik ishlarini boshlaganlar. Bu ishlarning boshlanishida o'ziga xos bayram tusini olgan tadbirlar o'tkazilgan. Bu tadbirlar *dalaga qo'sh chiqarish, shox moylar, ekin sayli, qo'sh oshi* singari nomlar ostida bayram qilingani ilmiy, ilmiy-etnografik manbalarda keltiriladi.

Bahor fasli bayramlar pallasi sanalgan. Bu faslda keksa-yu yosh hamma turli bayramlarga chiqqan. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, *qizil gul sayli / guli so'rx, lola sayli, behi guli sayli, boychechak sayli* singari bayramlar o'tkazilgan. Masalan, Samarqand viloyatining Nurato tumanida *qizil gul sayli*, Farg'ona vodiysida *lola sayli*, Samarqandda *behi guli sayli*, Zarafshon vodiysida *boychechak gulgardoni*, Buxoroda *gul gardoni bulbul* deb nomlangan bayramlar o'tkazilgan. Bu bayramlarning ayrimlari hozir ham nishonlanadi.

---

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. – Toshkent, 1997. -228-bet.

SHo‘ro imperiyasi davrida rusumga kiritilgan sun‘iy bayramlar ham bo‘lgan. Masalan, *g‘alaba kuni*, *1-may bayrami* va boshqalarni aytish mumkin.

#### ***1.2.4. O‘zbekistonning mustaqilligidan keyin paydo bo‘lgan bayram nomlari***

SHo‘rolar hukmronligi davrida ayrim azaliy va an‘anaviy bayramlarni ta‘qiqlash, ular o‘rnida sun‘iy bayramlarni tashkil etishdek noto‘g‘ri siyosat yurgazildi. Masalan, XX asrning 80-yillarida Navro‘z ta‘qiqlanib, o‘rniga navbahor bayramini o‘tkazish tavsiya etildi. Xalq ommasi bu sun‘iy bayramni qabul qilmadi. Shu davrdagi respublika hukumati 21 martdan 21 aprelgacha bir oy muddatda “Insoniylikni va tabiatni asrash e‘zozlash oyligi” o‘tkazishni, buning ichiga “Navro‘z”, “Xotira kuni”, “Birinchi pushta”, “Birinchi ekin”, “Don, maysa va suv kuni”, “Boychechak” bayrami, “Lola sayli” singari bayram va marosimlar o‘tkazishni tavsiya etdi. Bu xayrli ishlar respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng yanada jonlandi. Bayramlar yangi mazmun kasb eta boshladi. Bu ulug‘ kunlarga milliy mentalitetimiz ifodasi sifatida qarala boshlandi.

Respublikamiz mustaqilligidan so‘ng bir qator bayramlar rasmiy ravishda, keng xalq ommasi ishtirokida bayram qilinadigan bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 21 dekabrda o‘tgan sessiyasida quyidagi kunlar bayram deb e‘lon qildi:

*1-yanvar – Yangi yil.*

*8-mart –Xotin-qizlar kuni.*

*21-mart – Navro‘z bayrami.*

*9- may – Xotira va qadrlash kuni.*

*1-sentabr – Mustaqillik kuni.*

*1-oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni.*

*8-dekabr - Konstitutsiya kuni.*

*Ro‘za hayiti (Iyd-al-Fitr) – diniy bayramning birinchi kuni.*

*Qurbon hayiti (Iyd-al-Adha) – diniy bayramning birinchi kuni.*

Mustaqillikdan so‘ng adabiyot, san‘at, sport, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga oid ko‘plab bayramlar urfga kirdi. Iqtidorli qizlar uchun Zulfiya mukofoti, san‘at yo‘nalishida “Nihol” mukofoti, sport sohasida At-Termiziy va Amur Temur xotira turnirlari, “Tashabbus” ko‘rik-tanlovlari, uzluksiz ta‘lim tizimi yoshlari uchun “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” singari sport o‘yinlari va boshqa ko‘plab tadbirlarning tashkil etilayotgani va o‘tkazilayotgani o‘zbek tilidagi bayram nomlari salmog‘ining o‘rishiga o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatayotganini ta‘kidlab o‘tish joizdir.

### **Bob bo‘yicha xulosa**

1. O‘zbek xalq o‘yinlari tarixiy-etnografik, madaniyatshunoslik kabi yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Hatto madaniyatshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha talabalar uchun darslik ham yaratilgan. Bayram nomlari tadqiqi masalasi esa o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

2. Tadqiqotchi U.Islomovning ta‘kidlashicha, o‘zbek tilida ikki yuzga yaqin bayram nomlari mavjud va bu nomlarning aksariyati qadimiy tarixga ega. Haqiqatan ham o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan bayram nomlari uzoq kechmishga ega.

3. Professor U.Qoraboyev ma‘lumotlari asosida bayram nomlarining shakllanish tarixini quyidagicha belgilash mumkin:

- 1.Ibtidoiy jamoa davrida paydo bo‘lgan bayram nomlari.
- 2.YII-YIII asrlargacha bo‘lgan davrda yaralgan bayram nomlari.
- 3.YIII-XX asrlarda paydo bo‘lgan bayram nomlari.
- 4.O‘zbekistonning mustaqilligidan keyingi davrda paydo bo‘lgan bayram nomlari.

## II BOB. O‘ZBEK XALQ BAYRAMLARI NOMLARINING TEMATIK TASNIFI

Til lug‘at sastavining tashkil etuvchi leksik birliklarning lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra ma’lum guruhlariga birlashtirib o‘rganish o‘zbek tilshunosligida an’anaga aylanib qolgan. So‘zlarning ma’lum tushuncha, predmet-hodisalarni anglatishiga ko‘ra guruhlariga ajratib o‘rganish bir qator qulayliklarni tug‘diradi. So‘z va boshqa leksik biliklarni shunday tasnif qilish tilshunoslikda so‘zlarning tematik guruhlari yoki so‘zlarning tematik qatorlari deb yuritiladi<sup>24</sup>.

O‘zbek tilshunosligida bu sohada yirik tilshunoslar Fattoh Abdullayev, Said Usmonov, Azim Hojiyev, Ernst Begmatov va boshqalarning bir qator tadqiqotlari mavjud. O‘zbek tilshunosligi fanining bu sohadagi yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda o‘zbek xalq bayramlari nomlarini ma’lum tematik guruhlariga ajratib o‘rganishga harakat qilamiz.

Bizga ma’lumki, o‘zbek xalq bayramlari butun xalq tomonidan, xalqlarning ma’lum bir toifasi yoki guruhlari tomonidan o‘tkazilishi mumkin. Bundan tashqari, bayramlar mavsumiy, tadbiriy va boshqa xususiyatlarga ham ega. Bayramlar mehnat jarayonlari, madaniyat, sport bilan ham alorqador va bog‘liqdir. Bu holatlar bayram nomlarini quyidagi tematik qatorda o‘rganish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Ana shunday lisoniy va nolisoniy holatlarni e’tiborga olgan holda bayram nomlarini quyidagicha tematik tasnif etishni ma’qul ko‘rdik.

1. An’anaviylik xususiyatiga ega bo‘lgan bayram nomlari.
  2. Milliy bayram nomlari.
  3. Kasbiy bayram nomlari.
  4. Madaniyat va sport bayramlari nomlari.
  5. Tabiat bayramlari nomlari.
  6. Diniy xususiyatga ega bo‘lgan bayram nomlari.
- Quyida ularning har biriga alohida to‘xtalishga harakat qilamiz.

---

<sup>24</sup> Begmatov Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. 117-бет.

## 2.1. An'anaviylik xususiyatiga ega bo'lgan bayram nomlari tematik guruhi

Xalqimizning avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan bayramlari mavjud. Bu bayram nomlari o'zbek tili lug'at boyligidan o'rin olgan. Shuni ta'kidlash kerakki, an'ana tilimizga arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "nasldan naslga o'tuvchi qoida" degan ma'noni bildiradi. Besh jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da so'zga quyidagicha izoh berilgan:

AN'ANA Hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar. ...YA'ni tabiat go'zalligidan bahra olish — bu oilaning avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'anasi! «Tafakkur». Qolaversa, xayriya tadbirlarini markazimiz yoshlari uchun doimiy an'anaga aylantirish mo'ljallanmoqda. Gazetadan. ...lavozimini suiiste'mol qilayotgan rahbarlar... milliy rasm-rusmlarimizga putur yetkazmoqdalar, muqaddas an'analarimizning obro'sizlanishiga sabab bo'lmoqdalar. Gazetadan<sup>25</sup>.

An'ana so'ziga –viy affiksi qo'shilishidan yangi so'z yasalgan bo'lib, bu yasalma bir qator birliklar bilan sintaktik munosabatga kirishib, so'z birikmasini hosil qiladi. Masalan, *an'anaviy navoiyxonlik*, *an'anaviy boburxonlik*, *an'anaviy musobaqa*, *an'anaviy marafon*, *an'anaviy bayram* kabilar. An'anaviy yasalmasi "an'anaga aylangan"<sup>26</sup> ma'nosini ifodalaydi.

Bayramlar xalqimizning yuksak qadriyatlari ifodasidir. Shuning uchun ham ko'plab bayramlar har yili o'tkazilib kelinadi va an'anaviylik kasb etgan deyish mumkin. Shunday xususiyat kasb etgan bayram nomlariga *navro'z*, *mehrjon* singari qadimiy nomlarni, shuningdek, mustaqillik tufayli paydo bo'lgan va xalqimizning yuksak qadriyatlarini o'zida singdirgan bayramlar ham borki, ularning nomlarini ham ushbu tematik guruh tarkibiga kiritish mumkin. Masalan, *Xotira va qadrlash kuni*, *Xalqaro xotin-qizlar kuni* kabilar.

<sup>25</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Birinchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 89-bet

<sup>26</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Birinchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 89-bet

Navro‘z bayram nomi fors-tojikcha bo‘lib, o‘zbek tilida juda qadimdayoq o‘zlashgan. So‘zni ikki tarkibiy qismga ajratish mumkin: “nav” asos qism bo‘lib, o‘zbek tilida “yangi” degan ma‘noni ifodalaydi. “Ro‘z” so‘zi o‘zbek tilida “kun” ma‘nosini bildiradi. Demak, Navro‘z – yangi kun deganidir.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da navro‘z so‘zi shakldosh so‘z sifatida quyidagicha izohlangan:

**NAVRO‘Z I** [f. — yangi kun] **1** Shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni (mart oyining 21-kuniga to‘g‘ri keladi).

**2** Bahorchog‘i, bahor. *Navro‘z yomg‘iri*.

**Navro‘z bayrami** Eski sana hisobidagi yangi yil va bahorning boshlanishi munosabati bilan o‘tkaziladigan bayram.

**Navro‘zi ajam** O‘zbek mumtoz kuylaridan birining nomi.

**3** Navro‘z (erkaklar ismi).

**NAVRO‘Z II** Kechpishar o‘rik navi<sup>27</sup>.

Lug‘atda berilgan izohlardan ko‘rinib turibdiki, Navro‘z I biz tadqiq qilayotgan mavzuga tegishli birlikdir. Qadimda kucha va kunduzning tenglashgan kuni 21-martda to‘g‘ri kelgan va bu kun navro‘z deya nomlangan. Bu kalimaga bayram so‘zini qo‘shish orqali kecha va kunduz teng kelgan kunda nishonlanadigan bayram nomi ifodalangan. Og‘zaki nutqda bayram so‘zi ellepsisga uchrab, birikmaning birinchi so‘zi navro‘z bayram nomi uchun ham qo‘llanilayotganini kuzatish mumkin.

Navro‘z so‘zi asosida yangi lug‘aviy ma‘no anglatuvchi bir qator so‘zlar ham yasalgan bo‘lib, ularning ayrimlari lug‘atlardan o‘rin olgan. Masalan: *navro‘zgul*, *navro‘zlik* kabi. Navro‘z kishi ismlari (antroponimlar) tarkibida ham ko‘p uchraydi. *Navro‘z*, *Navro‘zbek*, *Navro‘zqul*, *Navro‘zali*, *Navro‘zjon*, *Navro‘zxon* singari erkaklar nomlari; *Navro‘zoy*, *Navro‘zxon*, *Navro‘zgul*, *Navro‘za*, *Navro‘zbibi* singari xotin-qizlar nomlari uchraydi. Bunday nom qo‘yilishining asosiy sababi shu ismli bolalar aynan navro‘z kuni tug‘ilganlar.

---

<sup>27</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Uchinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 8-bet

Navro‘z haqidagi manbalarda qayd etilishicha qadim zamonlarda navro‘z bayrami olti kun nishonlangan. Ayrim manbalarda ko‘rsatilishicha, navro‘z dastlab olti kun nishonlagan, keyinchalik bir oy bayram qilinadigan bo‘lgan. Bu kunlarda o‘tkaziladigan tadbirlar, ya‘ni navro‘z ichidagi kichik bayramlar alohida nomlangan ham. *Katta navro‘z, ulug‘ navro‘z, kichik navro‘z* singari birikmalar ana shu tufayli yuzaga kelgan.

Navro‘z qadimdan hozirga qadar bir paytda nishonlanib kelinadiki, bu uning an‘anaviyligini ko‘rsatuvchi dalillardan biridir. Bundan tashqari, navro‘zda pishiriladigan taomlarning aksariyati ko‘katlardan qilingan taomlar sanaladi. Bu ham uning an‘anaviyligidan dalolatdir. *Ko‘k somsa, ko‘k chuchvara, ko‘k pirajka, sumalak* va boshqa taom nomlari ham ushbu bayramni ko‘rsatuvchi til birliklari sanaladi.

Qadimdan buyon nishonlanib kelinayotgan bayram nomlaridan biri mehrjondir. Mehrjon Turon zamini aholisi tomonidan juda qadimdan buyon ardoqlanib, o‘tkazilib kelinayotgan bayram nomidir. Bayram kuz faslida, yilning ikkinchi yarmida nishonlanadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da mehrjon so‘zi negadir kiritilmagan. Bu bayram nomining asosi sanalgan mehr so‘zi fors tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “sevgi, muhabbat, moyillik”, “eroniyalarda quyosh yilining yettinchi oyi, quyosh” kabi lug‘aviy ma’nolarni ifodalashi qayd etilib, so‘z shaldoshlik hodisasini namoyon qilishi ko‘rsatilgan. Lug‘atda so‘zning izohi quyidagicha berilgan:

**MEHR I** [f. — sevgi, muhabbat; moyillik] **1** Insonning o‘z tug‘ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga bo‘lgan samimiy muhabbati; yaxshi ko‘rish tuyg‘usi. *Onalik mehri. Mehrini qozonmoq. Vatanga bo‘lgan mehr va muxabbat. Mehr bilan o‘qimoq. Ishga mehr qo‘ymoq. To‘satdan vujudini qamragan onalik mehri g‘olib kelib, tortgan azobi ham esidan chiqdi.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Ikki yor sevgisi xam mehri shunda. Shoirning ilhomi, she’ri ham shunda.* M.Alaviya. *Yoshlar o‘rtasida dehqonchilik kasbiga mehr uyg‘otishga z‘tiborni kuchaytirish kerak.* Gazetadan. *Bu o‘rik bir vaqtlar Murotalining otasi*

tomonidan zkilgan va mehr bilan parvarish qilingan edi. SH.Rashidov, Bo‘rondan kuchli.

2 Shafqat, raxmdillik. *Odamning yuragida mexr bo‘lishi kerak. Kerakli vaktida ko‘maklashish kerak.* Oybek, Tanlangan asarlar.

**Mehr qo‘ymoq** Mehrini bermok, mexr bog‘lamoq. *Men faqat o‘zim chizgan suratga — o‘z ijodimga mehr qo‘yganman, xolos!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

**Mehri tovlanmoq** Mehri qo‘zg‘almoq, mehri jo‘sh urmoq. *Onasi o‘g‘lini podshoh bo‘lmasidan oldingi nomi [Botirjon] bilan atab, mehri tovlanib gapirgani Boburga juda yoqimli tuyuldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

**MEHR II** [f. - eroniy quyosh yilining yettinchi oyi; quyosh] Quyosh, oftob. *Jahonning mehri ikkidur: biri sensan, biri — oftob.* E.Vohidov, Muhabbat<sup>28</sup>.

Mehr o‘zlashma so‘ziga –jon lug‘aviy shakl yasovchisini qo‘shish orqali bayram nomi yasalgani ko‘rinib turibdi. Bizningcha, lug‘atda zikr etilgan MEHR II asosida bayram nomi yuzaga kelgan.

Mehrjon bayram nomi sifatida “O‘zbek milliy ensiklopediyasi” dan o‘rin olgan. Qomusiy lug‘atda bayram quyidagicha izohlanadi:

**MEHRJON**, Mehrgon – kuzgi teng kunlikda kuz bayrami sifatida o‘tkazilgan bayram. Mil. av. 1 ming yillik boshida bunday kuzgi bayramlar turli joylarda, masalan, Eronda va boshqa joylarda Movoraunnahr, ko‘hna Xorazmda – *Chiriruj*, Sug‘dda esa *Nimsarda* nomi bilan mashhur bo‘lgan. O‘rta asrlarda Mehrgon muhim bayramlardan biri sifatida nishonlanib kelingan. Ba’zi mamlakatlarda Mehrgon davlatning rasmiy bayrami sifatida o‘tkazilgan. Shu maqsadda davlat xazinasidan mablag‘ ajratilgan, sovg‘alar tarqatilgan, yurtga osh berilgan, sayillar, musobakalar, tomoshalar uyushtirilgan. Mehrgon qadimgi dehqonchilik madaniyati bilan bog‘liq bayram nomidir. Musulmon

---

<sup>28</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Ikkinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 287-bet

ulamolari bu bayramni zardushtiylikka daxldor udumlar deb, o‘tkazilishiga qarshilik ko‘rsatishgan. Shu boisdan bo‘lsa kerak, Mehrgon bayramini nishonlash asta-sekin to‘xtagan. 20-asrning 90-yillardan Mehrgon dastlab Tojikistonda, so‘ng O‘zbekistonda qayta nishonlana boshladi<sup>29</sup>.

Ko‘rindiki, qadimda *mehrjon* va *mehrgon* nomlari parallel qo‘llanishda bo‘lgan. Ayni paytda esa bu variantdosh birliklarning ikkinchi iste‘moldan chiqqan, mehrjon nomi esa qo‘llanilmoqda. Mehrjon bayram nomi turkiy xalqlar va sug‘diy xalqlari o‘rtasida ham juda qadimdan mavjud bo‘lgan, faqat nom boshqacha tarzda qo‘llanilgan. Xorazmliklar chiri ruj deb nomlagan bo‘lsalar, sug‘dlar nim sarda deb atashgan. Nim sarda so‘z birikmasining ma‘nosi “yil yarmi” deganidir. Mart oyini yilning boshi deydigan bo‘lsak, yilning ikkinchi yarmi boshi sentabr oyiga to‘g‘ri keladi. Demak, sentabrning 21 kuni mehrjon bayrami o‘tkaziladigan kundir.

Abu Rayhon Beruniy navro‘z va mehrjon bayramlarini bir-biriga taqqoslab, yarim hazil tariqasidagi bir rivoyatni keltiradi: “Bir guruh kuzni bahordan ortiq bilganidek, ular mehrjonni navro‘zdan ortiq bilganlar. Buni isbotlashda Iskandar Arastudan, u ikki kunning qaysisi afzal deb so‘raganida uning: “Ey podshoh, bahorda hashoratlar paydo bo‘la boshlaydi, kuzda esa ular yo‘qolib ketadi. Demak, shu jihatdan kuz (bahordan) afzal”, - degan javobiga asoslanadilar”<sup>30</sup>.

Xalqlar boshidan kechirgan ijtimoiy-siyosiy va tarixiy voqealar bilan bog‘liq holda yaralgan bayram nomlari ham borki, ayrim ilmiy adabiyotlarda bu nomlar ijtimoiy-siyosiy baayram nomlari sifatida zikr etiladi<sup>31</sup>. Bu bayramlarning paydo bo‘lish muddatlari turlicha. Ayrimlari yuz yillardan buyon bayram sifatida nishonlanayotgan bo‘lsa, ayrimlari yaqin o‘n yoki o‘n besh yillardan buyon bayram qilinadi. Demak, ularning bayram sifatida nishonlanishida siyosiy-ijtimoiy, tarixiy holatlarning ahamiyati yo‘q, balki har yili an’anaviy tarzda

---

<sup>29</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. O‘n ikki tomli. –tom.

<sup>30</sup> Beruniy A.R. Ko‘rsatilgan manba. 161-162-betlar.

<sup>31</sup> Qoraboyev U. Ko‘rsatilgan manba. 163-bet.

nishonlanayotganlik belgisi mavjudki, shunga asoslanib ularni an'anaviylik xususiyatiga ega nomlar qatoriga kiritish mumkin. Bu nomlarga quyidagilar kiradi: *Xalqaro xotin-qizlar kuni, Xotira va qadrlash kuni, Yangi yil kabilar.*

## **2.2. Milliy bayram nomlari tematik guruhi**

U yoki bu millatning tarixidagi muhim voqea-hodisalarni nishonlab o'tkaziladigan bayramlar nomi milliy bayram nomlari tematik guruhi tarkibiga kiradi. Bu nomlarning o'ziga xos jihati shundan iboratki, bu nomlar faqat o'zbek tilida mavjud. Zero boshqa xalqlar bu tarixiy kunlarni bizdagi kabi bayram qilishmaydi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ushbu tarixiy kun xalqlar orzu-umidlari ushalgan kun sifatida bayram qilinadigan bo'ldi. Prezidentimiz qarori bilan 1-sentabr – *Mustaqillik kuni* deb e'lon qilindi. Mustaqillik kuni respublikamiz mustaqilligini qo'lga kiritgan kun, milliy bayram nomi sifatida o'zbek tili lug'at boyligidan o'rin oldi.

8 dekabr O'zbekiston Konstitutsiyasi e'lon qilingan kun bo'lib, har yili *konstitutsiya kuni* bayram qilib kelinadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston mustaqilligidan so'ng milliy qadriyatlarimiz ramzi sifatida bayrog'imiz, gerbimiz, madhiyamiz qabul qilingan kunlar ham bayram sifatida nishonlanmoqda va o'zbek tili so'z boyligi tarkibidan *O'zbekiston bayrog'i qabul qilingan kun, O'zbekiston gerbi qabul qilingan kun, O'zbekiston madhiyasi qabul qilingan kun* singari shtamplashgan strukturali birliklar o'rin oldi.

Mustaqillikdan keyin ilgari nishonlanib kelingan ayrim bayramlar ham mazmunan, ham shaklan yangicha mazmun kashf etdi. Masalan, 9-may sobiq sho'rolar davrida *g'alaba kuni* sifatida nishonlanib kelingan bo'lsa, mustaqillikdan keyin *xotira va qadrlash kuni* sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Bu nomda ham milliylik belgilarini ko'rish mumkin.

Shunday yangicha mazmun kasb etgan bayramlardan yana biri *o'qituvchilar va murabbiylar kunidir. Bu bayram sobiq sho'rolar davrida oktabr oyining*

*birinchi yakshanbasida nishonlanib, o'qituvchilar kuni deb nomlangan bo'lsa, hozirda aniq bir kun – 1-oktabrda nishonlanib, umumxalq bayramiga aylantirildi.*

### **2.3. Kasbiy bayram nomlari tematik guruhi**

Xalqimizda kasblar ko'p. Xalqimiz bejizga “Bir yigitga qirq hunar oz” deb aytmaydi. Ma'lum bir kasb va mutaxassislik egalarining o'z kasbiy bayramlari ham mavjud. Masalan, milliy bayramlar qatorida yuqorida sanab o'tilgan *o'qituvchilar va murabbiylar kuni* bayram nomi ayni paytda kasb egalariga nisbatan qo'llanganda kasbiy bayramlar tematik guruhi tarkibiga kiradi.

O'zbek tilida *shofokorlar kuni, qishloq xo'jalik xodimlari kuni, matbuot xodimlari kuni, savdo xodimlari kuni, pochta-aloqa xodimlari kuni, gazchilar kuni, avtomobilchilar kuni, ichki ishlar xodimlari kuni, xalqaro turizm kuni* singari bir qator bayram nomlari ham qo'llanib kelinadi.

Kasbiy bayramlarning aksariyati yakshanba, dam olish kunlariga to'g'ri keladi.

### **2.4. Mehnat bayramlari nomlari tematik guruhi**

Juda qadim zamonlardan buyon o'zbek xalqi hayotida mehnat bilan bog'liq bo'lgan turli marosimlar va bayramlar o'tkazib kelinadi. U.Qoraboyevning e'tiroficha, hozirgi davrda respublikamizda nishonlanadigan bayramlarning asosiy qismini mehnat bayramlari tashkil etadi<sup>32</sup>. Bu esa mehnat bayramlari nomlari tematik guruhiga kiruvchi til birliklari katta salmoqqa egaligidan dalolat beradi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, azal-azaldan mehnatkash va mehnatsevar bo'lgan o'zbek xalqining turmush tarziga yangicha mehnat bayramlari, an'analari kirib kelmoqda. Respublikamiz aholisining oltmish foizdan ortig'i qishloq xo'jalik

---

<sup>32</sup> Qoraboyev U. Ko'rsatilgan manba, 100-bet.

ishlari bilan bandligini e'tiborga oladigan bo'lsak, mehnat bayramlari nomlarining katta salmoqqa ega ekanligini taxmin qilish mumkin.

Respublikamiz mirishkor dehqonlari paxtachilik, g'allachilik, sholikorlik, polizchilik, sabzavotkorlik, bog'dorchilik singari tarmoqlarda faoliyat yuritib keladilar. Bu kasb egalari mo'l hosil yetishtirib, katta mehnat zafarlarini qo'lga kiritgach, o'z muvaffaqiyatlarini bayram sifatida nishonlaydilar. Mirishkor dehqonlar hosil yig'ib bo'lingandan keyingina emas, balki yerlar ekishga tayyorlanayotgan dastlabki kunlardan oq bayramlar o'tkazishgan.

Bayramlarni tadqiq etgan U.Qoraboyev respublikamiz dehqonlari tomonidan nishonlanib kelingan bayramlar kalendarini tuzib chiqadi. Bu kalendarida har bir oyda dehqonlar o'tkazadigan bayram yoki marosimlar hamda bu tadbirlarda amalga oshiriladigan ishlar aks etgan. Quyida kalendarni aynan keltiramiz (1-chizma).

## 1-chizma

| Bayram o'tkazilish vaqti            | Bayram va marosimlar nomi                                                             | Tadbirlar mazmuni va shakli                                                                                        |
|-------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Fevral                              | <i>Qurultoy – qishloq xo'jaligi xodimoarining yillik kengashi</i>                     | O'tgan hosil yili yakunlari va yangi mavsum rejalariga bag'ishlangan yig'ilish-anjuman.                            |
| Mart                                | <i>Navro'z bayrami</i>                                                                | Yangi mehnat mavsumi boshlanishi munosabati bilan o'tkaziladigan marosim, tadbirlar va sayllar.                    |
| Aprel                               | <i>Urug' qadash marosimi (Chigit ekish marosimi)</i>                                  | Urug' qadashning birinchi kuniga bag'ishlangan tantana, marosim va konsertlar.                                     |
| May                                 | <i>Yoshlarni paxtakorlar safiga tantanali qabul qilish</i>                            | Yoshlarni paxtakorlar safiga tantanali qabul qilish marosimi. "Paxtakorlik – bobo kasbim" an'anaviy tematik kecha. |
| Iyun                                | <i>Birinchi gul bayrami</i>                                                           | Ilk bor g'o'zalar gullashiga atalgan tematik kecha va konsert.                                                     |
| Iyul                                | <i>Ilk maosh</i>                                                                      | Yosh paxtakorlarning ilk maosh olishiga va maoshlardan to'g'ri foydalanishiga bag'ishlangan suhbatlar, marosim.    |
| Avgust oyi oxiri                    | <i>Qizil karvon (birinchi oq oltin karvoni)</i>                                       | Ilk bor yig'ilgan hosilni davlatga topshirish tantanalari, sayl va tadbirlar.                                      |
| Noyabr oyining uchinchi yakshanbasi | <i>Qishloq xo'jaligi va agrosanoat kompleksi qayta ishlash sanoati xodimlari kuni</i> | Kasbkorlik bayrami munosabati bilan o'tkaziladigan tantanali majlis va dam olish kechasi.                          |
| Noyabr oxiri dekabr boshi           | <i>Paxta bayrami (Hosil bayrami)</i>                                                  | Paxta tejasi va majburiyati bajarilishini nishonlaydigan tantana, namoyish va sayl.                                |

Yuqorida keltirilgan tadbirlar rejasiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning aksariyati o'sha davr rahbariyati tomonidan tuzilgan, xalqning milliy xususiyatlaridan ancha yiroq bo'lgan marosim va tadbirlar ekanligi aniq bo'ladi. Shuning uchun ham mustaqillik tufayli ularning ko'pchiligi urfdan chiqib ketdi. Ularni ifodalovchi til birliklari ham iste'moldan yiroqlashdi. Ayrimlari yangi mazmun kasb etdi va bu holat ularning nomlarida ham zuhurlandi. Masalan, *qizil karvon* birikmasi o'rnida *hosil bayrami* birikmasi kengroq qo'llaniladigan bo'ldi.

Ayni paytda xalqimizning mehnati bilan bog'liq qadimiy marosim va an'analari o'z umrini davom ettirmoqda. Ularning tushunchalarini ifodalovchi birliklar ham iste'molda. *Qurultoy, urug' qadash, birinchi gul, gul bayrami, hosil bayrami, oq oltin karvoni, qovun sayli, shirinak, uzum sayli, anor sayli, olma sayli* singari marosimlar hozir ham respublikamizning turli viloyatlarida o'tkaziladi. Bu holat ham ularning tildagi nomlarining yashab kelayotganligini ta'minlovi asosiy vosita bo'lib qolmoqda.

Juda qadimdanoq bahor kelib, kunlar isishi bilan dehqonlar dala ishlariga kirishganlar. Dala ishlarining boshlanishi ma'lum marosim va an'analar bilan bog'lanib ketgan. Masalan, o'tmishda *qo'sh chiqarish, shox moylar, ekin sayli, qo'sh oshi* singari marosimlar o'tkazilgan. Bu marosimlar keyinchalik bayram tusini olgan. Bu xil bayramlarning ayrimlari yillar o'tishi, davrlar o'zgarishi va taraqqiyotning rivojlangan bosqichi ta'sirida unutila boshlandi. Ularni ifodalovchi leksik birliklar ham iste'moldan chiqib keta boshladi.

Paxtakorlik asosiy kasblardan biri bo'lgan o'zbek xalq hayotida chigit qadash muhim, ayni paytda quvonchli palla sanaladi. Shuning uchun ham aprel oyining birinchi o'n kunligida, ayrim joylarda esa ikkinchi o'n kunligida yerga chigit qadashga bag'ishlangan tadbirlar, marosimlar va bayramlar o'tkaziladi. Bu kabi tadbir va marosimlarning nomlari *urug' qadash* yoki *chigit ekish* deb yuritiladi.

G'o'zaning rivajlanish davri bilan bog'liq bo'lgan bir qator marosim va tadbirlar borki, ularni ifodalovchi til birliklari o'zbek tili bayramlari nomlarining mehnat bilan bog'liq bayramlar tematik guruhi tarkibidan joy oladi. Masalan,

*birinchi gul, g'o'za gulladi, shona, birinchi chanoq, qo'sh chanoq, terim boshi, hosil bayrami, hosil karvoni singari so'z va birikmalarni keltirib o'tish mumkin.*

Bu kabi bayram va tadbirlar nomlarini g'allakorlar, pillakorlar tilida ham uchratish mumkin. G'allachilik leksikasida *urug' sepish. birinchi o'rim, birinchi boshqoq singari nomlar keng qo'llanilsa, pillakorlar nutqida birinchi hosil nomi ishlatiladi.*

Poliz va bog'dorchilik mahsulotlarini yig'ishtirib olish va davlatga sotish bilan bog'liq jarayonlarni, shu jumladan, bu sohadagi tadbir, marosim va o'ziga xos bayramlarni ifodalovchi nomlar ham uchraydi. Polizchilar o'z hosili yig'ishtirib olgach, *qovun sayli* bayramini o'tkazadilar. 20-asrning 20-30-yillarida respublikamizda qovun sayli katta bayram sifatida nishonlangani manbalarda qayd etiladi.

Respublikamiz hududining bog'dorchilikka ixtisoslashgan tumanlari va xo'jaliklarida bog' hosilini yig'ishtirib olgandan so'ng o'tkaziladigan bayramlari bor. U.Qoraboyevning yozishicha, Samarqand viloyatining Urgut tumanida *uzum sayli* bayrami, Farg'ona viloyatining Quva tumanida *anor sayli*, Namangan viloyati tumanlarida *olma sayli* bayramlari o'tkazib kelingan. Buni viloyatimizning bog'dorchilikka ixtisoslashgan Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlarida ham kuzatish mumkin.

Sanoat sohasi ishchilari hayotidan o'rin olgan o'ziga xos bayram nomlari ham bor. Masalan, *ishchilar safiga qabul qilish, ilk maosh, pensiyaga kuzatish* kabi tadbir va bayramlar shular jumlasidandir.

## **2.5.Madaniyat va sport bayramlari nomlari tematik guruhi**

O'zbek tili bayram nomlarining katta qismini madaniyat va sport, jumladan, ilm-fan, ma'rifat, adabiyot, san'at, xalq ijodi, turmush madaniyati, bolalar sporti, xotin-qizlar sporti va boshqa bayram nomlari tashkil etadi. Bu nomlar bayram nomlarining alohida tematik guruhini tashkil etadi.

Ilmiy adabiyotlarda bu tematik guruhga kiruvchi nomlar umumiy darzda madaniyat bayramlari nomi ostida birlashtirib kelinadi. Biz esa bu tematik guruhni madaniyat va sport bayramlari nomi sifatida belgilashni ma’qul ko’rdik.

Ma’rifiy voqealarga bag’ishlangan bayram nomlarining ma’lum qismini uzluksiz ta’lim tizimi bo’g’inlarida nishonlanib kelinayotgan bayram nomlari tashkil etadi. Ularga *kitob bayrami, alifbe bayrami, bilimlar kuni, birinchi qo’ng’iroq, til bayrami* singari nomlarni kiritish mumkin.

Ilm-fan yutuqlariga bag’ishlangan marosimlar, yetuk fan va madaniyat arboblarning yubeylelarini nishonlash respublikamizda an’anaga aylanib qolgan. Bunday tadbirlar ommaviy bayram sifatida nishonlanmoqda. Buning natijasida o’zbek tili bayramlari nomlari yangi leksik birliklar bilan boyib bormoqda. Keyingi yillarda Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1000 yilligi (1973), Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi (2001), Abu Ali ibn Sino tavalludining 1000 yilligi (1980), Al-Xorazmiy tavalludining 1200 yilligi (1983), Bobur tavalludining 500 yilligi (1983) keng nishonlandi. O’zbekiston mustaqilligidan so’ng Imom Moturudiy, Al-Farg’oniy, Amir Temur, Ismoil Buxoriy, At-Termiziy, Abduxoliq G’ijdivoniy va boshqa ulug’ allomalarning yubeyley sanalari keng nishonlandi. Qadimiy yozma manbaimiz sanalgan “Avesto”ga bag’ishlangan, xalq poetik ijodining go’zal namunasi sanalgan “Alpomish”ga bag’ishlangan tadbirlar o’ziga xos bayram tusini oldi.

Respublikamiz hududida har yili *navoiyxonlik, pushkinxonlik, boburxonlik, mashrabxonlik kunlari* o’tkazilardi. Taniqli yozuvchilarimizning yubeylelariga bag’ishlangan tadbirlar ham bayram nomlarini boyituvchi ichki manba vazifasini o’tamoqda.

San’at, sport va jismoniy tarbiya sohasida ham ko’plab bayramlar o’tkazib kelinmoqda. Bularning antijasi o’laroq tilimizda “*Umid nihollari*”, “*Barkamol avlod*”, “*Universiada*” singari sport bayramlari nomlari; “*Sharq taronalari*”. “*Nihol*” kabi san’at bayramlari nomlari; *fond-forum* tadbirlari nomlari yaraldiki, bularning barchasi madaniyat va sport bayramlari nomlari tematik guruhni

boyituvchi til birliklari sanaladi. Quyida ularning ayrimlari xususida alohida to'xtalishga harakat qilamiz.

### ***2.5.1. Ma'rifiy bayram nomlari***

Respublikamizning barcha o'quv muassasalarida sobiq ittifoq davridayoq birinchi sentabr bilimlar kuni sifatida bayram qilingan. Mustaqillikdan so'ng Prezidentimiz qarori bilan 2-sentabr bilimlar kuni va birinchi qo'ng'iroq sifatida bayram qilinadi.

*Kitob bayrami* birligi ham sobiq sho'rolar davrida tilimizda paydo bo'lgan. *Alifbe bayrami* birikmasi xususida ham shunday deyish mumkin.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi munosabati bilan 21 oktabr *til bayrami* sifatida nishonlana boshlandi. Tilimizga til bayrami birikmasi o'zlashdi.

### ***2.5.2. San'at bayramlari nomlari***

San'at bayramlari nomlarining tilimizda paydo bo'lganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, 20-asrning 70-yillaridan so'ng respublikamizda san'at bayramlari o'tkazib kelinayapti. Mustaqillikdan so'ng tilimizga yangi san'at bayramlari nomlari kirib keldi. Masalan, *nihol* o'zbek tilida fors tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "yangi o'tqazilgan, o'stirilgan daraxt; qalamcha" ma'nolarini ifodalaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da so'zning quyidagi ma'nolari zikr etilgan:

**NIHOL** [*f.* - yangi o'tqazilgan, o'stirilgan daraxt; qalamcha] 1 Yosh novda yoki ko'chat. *Yosh niholga ustalik bilan qilingan payvand tez amal oladi.* M.Ismoiliy, Farg'ona t. o.

2 Yangi unib chiqqan o'simlik, ekin. *G'o'za nihollari. Daraxtdan meva olaman desang, niholidan parvarish qil.* Maqol. *Bolani yoshdan asra, niholni boshdan asra.* Maqol.

**Nozik nihol** 1) yosh novda yoki ko'chat. *Nozik nihol daraxtlar;* 2) *ko'chma* nozik qomat va shunday qomatli kishi. *Bejirim, kelishgan nozik niholing, Beqasam kamzuling yarashibdi xo'p.* X.Rasul.

3 *ko'chma* Yetilmagan yosh narsa; murg'ak, kurtak. *G'ulomjonning ko'ngli sindi, yo'q, ko'ngli emas, umr orzusining niholi sindi*. M.Ismoiliiy, Farg'ona t. o. *Ishdan qaytgan chog'imda Qiyqiradi o'g'ilcham, — Hali nixol bog'imda, Bargin yozmagan g'uncham*. Y.Mirzo<sup>33</sup>.

Ko'rinib turibdiki, izohli lug'atda *nihol* mukofot nomi sifatida hali kiritilmagan. Mukofot nomi izohli lug'atda berilgan ma'nolar asosida metaforik ma'no ko'chish tufayli yaralgan til birligi sanaladi.

*Sharq taronalari* bayram nomi ham shu tematik guruh birligidir.

### **2.5.3. Folklor bayramlari nomlari**

20-asrning oxiri, ayniqsa mustaqillikdan so'ng ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashishi davrigina emas, balki xalq madaniyati, uning og'zaki ijodiyotining ham rivojlanish davri bo'ldi deb aytish mumkin. 1975-1977 yillarda respublikamizda badiiy havaskorlik kollektivlarining birinchi festivali o'tkazilgan bo'lsa, 1985-1987 yillarda ikkinchi, 1988-1991 yillarda uchinchi festivali bo'lib o'tdi. 1988 yilda Moskva shahrida 1-xalqaro folklor festivali bo'lib o'tdi. Markaziy Osiyo davlatlarida ham bunday folklor bayramlari o'tkazib kelingan. Turkmanistonning Toshovuz viloyatida baxshilar bayrami, Tojikistonning Xo'jand viloyatida folklor bayrami o'tkazilgan.

Respublikamiz hududida mustaqillikdan keyin o'tkazib kelinayotgan baxshilar ko'rik-tanlovlari, dorbozlar musobaqasi, askiya bayrami singari bayramlar o'tkazilib kelinayotgani quvonchili hodisa sifatida baholanmog'i kerak.

O'tkazilayotgan tadbirlar tufayli o'zbek tili bayram nomlari tarkibiga *baxshilar bayrami, folklor bayrami, askiya bayrami, maqomchilar bellashuvi, dorbozlar bellashuvi, boysun bahori musobaqasi, festival, karnaval* va boshqa qator so'z va birikmalar kirib keldi.

### **2.5.4. Sport bayramlari nomlari**

---

<sup>33</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Uchinchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti, 2007. 44-bet.

Respublikamizda madaniyat va sport ishlariga har qachongidan ham ko‘proq e‘tibor qratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining bevosita tashabbusi natijasida *kurash* degan atama jahon tillariga o‘zlashdi. Kurash bilan bog‘liq *halol, chala, dakki* singari nomlar ham jahonning turli davlatlarida o‘zbekcha yangray boshladi.

Respublikamiz va Xalqaro miqyosda kurash fediratsiyalari tashkil topdi, ularning nomlari o‘zbek tili lug‘atidan mustahkam joy oldi. Mamlakatimizda turli xalqaro sport musobaqalari o‘tkaziladigan bo‘ldi. Bu esa bayram nomlari tematik guruhidagi sport bayramlari nomlari tarkibining kengayishi va boyishiga xizmat qildi.

Har ikki yilda respublikamizning Shahrizabz shahrida Amir Temur xotirasovrini uchun, Termiz shahrida esa At-Termiziy xotira sovrini uchun kurash musobaqalari o‘tkazib kelinmoqda. Bu musobaqalar bayram tusini olayotir. Kurash sportiga oid so‘z va atamalar tilimizda bisyor. *Belbog‘li kurash, farg‘onacha kurash, buxorocha kurash, halol, yonbosh, dakki, chala, chil* va boshqa ko‘plab til birliklari soha atamlarining boyligi sanaladi.

Sport bayramlari nomlarining ma‘lum qismini ko‘pkari musobaqalariga oid so‘z va birikmalar tashkil etadi. Bu sohaga oid *uloq, ko‘pkari, ot, chavandoz, polvon, chetgir, to‘dagir, taka, zot, sovrin, poyga* va yana boshqa ko‘pgina atamalar sport bayramlari nomi tematik guruhining boyligi sanaladi.

Bundan tashqari, *“Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada”, tennis musobaqalari, chelenjir musobaqasi* va boshqa lug‘aviy birliklar ham shu tematik guruhning birliklaridir.

## **2.6. Tabiat bayramlari nomlari tematik guruhi**

Keyingi yillarda barcha turdagi ommaviy tadbirlarga bayram tusini berish harakati kuchaymoqda. Buni tabiatga bag‘ishlangan tadbirlarda ham yaqqol ko‘rish mumkin. Zero tabiatdagi ajoyibotlar, go‘zalliklar kishi kayfiyatini ko‘taradi, o‘ziga xos bayram kayfiyatini tug‘diradi. Shuning uchun ham bo‘lsa kerak, respublikamiz hududlarida va respublika miqyosida tashkil etilayotgan ayrim

tadbirlar bayram tusini ola boshladi. Tabiat bilan bog‘liq yangi bayramlar urf bo‘la boshladi, ularning nomini anglatuvchi til birliklari esa soha leksikasining boyishiga zamin yaratmoqda.

Gullar ko‘rgazmasi asosida *gullar bayrami*, qushlar ko‘rgazmasi asosida *qushlar bayrami*, tabiat mahsulotlaridan tayyorlangan in‘omlar asosida *tabiat in‘omi bayrami* vujudga keldi.

Tabiat bilan bog‘liq bayram nomlarining ildizlari uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu xususda bitiruv-malakaviy ishning birinchi bobida kengroq to‘xtalganimiz bois keyingi yillarda o‘zbek tiliga kirib kelgan ayrim bayram nomlarini izohlashga o‘tamiz.

Ilmiy manbalarda tabiat bayramlari ikkiga bo‘lib o‘rganilganini ko‘ramiz:

a) insonning tabiatdan foydalanishi, uni o‘zlashtirishi uchun qilingan mehnat asosida yaratilgan bayramlar: *ona yer saxovati*, *qovun sayli* singari bayramlar nomlari;

6) tabiat va mehnat bayramlari nomlari<sup>34</sup>.

Bu ikki turga kirmaydigan bayramlar ham bor. Fasllar almashinishi tufayli tabiatda bo‘lgan o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘lgan bir qator bayramlar bor: *yangi yil*, *navro‘z*, *lola sayli*, *qushlar bayrami*, *oltin yoz*, *gullar bayrami*, *oltin yoz*, *oltin kuz* singari bayramlar shular jumlasidandir<sup>35</sup>.

Tabiat bayramlari nomini anglatuvchi birliklar tematik guruhiga yuqorida keltirilgan bayram nomlaridan tashqari, shu bayramlarda foydalanilgan turli predmet nomlari, bayramlarda yuzaga kelgan holat, voqea nomlari kabilarni ham kiritish mumkin. Masalan, *navro‘z bayrami* bilan bog‘liq holatda *sumalak*, *ko‘k somsa*, *palov*, *manti* singari taom nomlari; *ko‘pkari*, *kurash*, *poyga*, *xo‘roz urishtirish*, *arqon tortish*, *qo‘chqor urishtirish*, *to‘p* singari musobaqa nomlarini shu tematik guruhga kiritish kerak bo‘ladi.

Tabiat in‘omi degan bayramda turli qishloq xo‘jalik mahsulotlari ko‘rgazmalari tashkil etiladi. Ana shu qishloq xo‘jalik mahsulotlari nomlarini ham

---

<sup>34</sup> Qoraboyev U. Ko‘rsatilgan manba. 71-bet.

<sup>35</sup> Qoraboyev U. Ko‘rsatilgan manba. 71-bet.

shu guruhga kiritilgan bo'lsak, soha leksikasi qanchalik boy ekanligi aniq bo'lib qoladi.

Gul bayramlari butun dunyoda keng tarqalgan bayramlardan biridir. Ilmiy manbalarda gul bayramlari nomlari turli mamlakatlarda turlicha nom bilan atalib kelinishi qayd etiladi. Gretsiyada – *sunbul*, Yaponiyada – *xrizantema*, Fransiya – *marvarid gul*, Hindistonda – *atirgul* bayramlari o'tkaziladi. Respublikamiz aholisi an'analarga e'tibor bersak gul sayllari har yili o'tkazib kelinganiga guvoh bo'lamiz. Bu tadbir tufayli *lola sayli*, *sunbula sayli*, *guli surx (qizil gul)* singari bayram nomlari paydo bo'lgan.

## **2.7. Diniy bayram nomlari tematik guruhi**

Ma'lum bir diniy e'tiqod asosida yuzaga kelgan bayram nomlari ham qadimiy ildizlarga ega. Bu haqdagi fikrimizni A.R.Beruniy asarlarida keltirilgan ma'lumotlar ham tadiqlaydi. Jumladan, olim qadimgi Xorazmda nishonlangan bayramlar xususida fikr yuritish ekan, ularning bayramlarini ikkiturga ajratadi:

- a) tabiat voqealariga bag'ishlangan bayramlar;
- b) diniy marosimlar tufayli paydo bo'lgan bayramlar.

Olim *mina kechasi* bayram nomini tilga olar ekan, bu nom vafot etgan ayolni xotirlash maqsadida o'tkazilgani xususida ma'lumot beradi. Bu faktning o'ziyiq bayram nomlari tematik guruhida diniy urf-odatlar bilan bog'liq nomlar ham kiritilishi tabiiy ekanligini ko'rsatadi.

Dunyoda mashhur bo'lgan uch kyirik dinning bittasi sanalgan islomning asosiy hayiti (bayrami) ikkitadir:

- a) "Iyd al-kabir" – katta iyd, ya'ni qurbon hayiti;
- b) "Iyd al-fitr" – ro'za hayiti.

Bu ikki diniy bayram nomi Muhammad payg'ambarning Makkai mukarramadan Madinai munavvaraga hijrat qilib kelgan davrlariga, ya'ni hijriy sananing birinchi yillarida joriy qilingan. Imom Nasimiy bu haqda o'z hadisida shunday ma'lumot keltiradi:

“Rasululloh Madinga hijrat qilib kelganlarida madinaliklar qadimdan bir yilda ikki kunni bayram qilar edilar. Ul zot Ollohning amri bilan shu ikki kunni ulrdan yaxshirog‘iga, ya’ni Ramazon va Qurbon hayitlariga almashtirdilar”<sup>36</sup>.

Ushbu hayitlar musulmonlikni qabul qilgan xalqlarning urf-odatlarini, an‘analari, hayotiy tajribalari bilan bog‘lanib ketgan. Shu boisdan bu hayitlar ko‘pgina musulmon xalqlarida ham diniy, ham milliy bayram sifaida nishonlanadi.

Bu ikki bayram bilan bog‘liq ko‘plab nomlar borki, ular o‘zbek tili leksikasidan munosib o‘rin olgan. Jumladan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da hayit so‘zi arab tilidan o‘zlashgan so‘z sifatida quyidagicha izohlangan:

**HAYIT** [*a. — bayram, tantana*] **1 din.** Yilda ikki marta: ramazon tamom bo‘lgach uch kun va qurbon oyida uch kun bo‘lib o‘tadigan diniy bayram. *To‘y tegishliniki, hayit barchaniki.* Maqol. *Ilgari hayit kunlari Ko‘mirsaroyda qo‘g‘irchoqbozlik, «chodirxayol» bo‘lar edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Hayitdagi marosimlarga ko‘p joylarda xalqlarning mahalliy odatlari — arafa kuni osh ulashish, yangi kiyim kiyish, hayitlik berish, sayl qilish, yaqin odamlarini ko‘rish va hokazo ham qo‘shilib ketgan.* «O‘zME».

**Katta hayit yoki qurbon hayiti** Hijriy zulhijja oyi, ya’ni qurbon oyining o‘ninchi kuni bo‘ladigan diniy bayram. *Katta hayit bo‘lsa — o‘tgan, kichigiga hali ancha bor.* M.Ismoilov, Farg‘ona t. o. *Qurbon hayiti arafasida qishloqi murid To‘laboy yana bir qo‘y keltirib tashladi.* P.Tursun, O‘qituvchi.

**Kichik hayit yoki ro‘za hayiti** Hijriy ramazon oyi tugashi bilan ertasiga, ya’ni shavvol oyining birinchi kuni bo‘ladigan diniy bayram. *Buning ustiga kichik hayitning bahor fasliga to‘g‘ri kelgani nur ustiga a‘lo nur bo‘ldi.* Mirmuhsin, Me‘mor.

**2 etn.** *Vafotiga yil to‘lmagan kishini hayit kunlari yo‘qlab aza tutish, eslash marosimi; ma‘raka.* Onasining hayiti yaqinlashgan kunlar edi. *Hademay akasining hayiti ham keladi.*

**3 ko‘chma** Biror muvaffaqiyat, g‘alaba munosabati bilan bo‘ladigan umumiy shodlik, bayram. *Paxta planimiz bajarilgan kuni sizni bizga hayit-da! -Echkiga jon*

---

<sup>36</sup> Mansurov A. Hayit qachon boshlangan? / Fan va turmush, 1990, 4-son. 28-29-betlar.

*qayg'usi, qassobga moy qayg'usi. Men nima g'amda-yu, sizga hayit ekan-da? — dedi Akmal Qudratga. J.Abdullaxonov, Yo'l.*

#### 4 Hayit (erkaklar va xotin-qizlar ismi)<sup>37</sup>.

Ko'rinib turibdiki, izohli lug'atda hayit leksimasiga tegishli bo'lgan bir qator so'z va birikmalar ham ko'rsatib o'tilgan: *hayit, arafa, arafa kuni, hayit kuni, katta hayit, qurbon hayiti, kichik hayit, ro'za hayiti, ramazon, ro'za, iftor, hayitlik* kabilar. Bundan tashqari, lug'atda *hayitlamoq, hayitlashmoq, hayit bayrami, hayit-ma'raka, hayitchilik* singari so'z va birikmalar ham alohida so'zlik sifatida berilgan. Umuman olganda, diniy udum va marosimlar bilan bog'liq *iyd, iyd namozi, iydi ramazon, iydi qurbon, iydlik, qurbon, qurbonlik, chin arafa, yolg'on arafa, arafagarchilik* singari so'z va birikmalar ham qo'llaniladi.

Bu birliklarning ayrimlarini ma'nosini keltirib o'tamiz.

*Iyd* arabcha so'z bo'zlib, diniy bayram; hayit ma'nolarini ifodalaydi. Bu arabiy so'z birikmalar tarkibida ham qo'llaniladi

*Iyd namozi* – ramazon va qurbon hayitlarining birinchi kuni erta bilan o'qiladigan namoz.

*Iydi ramazon* – ro'za tugashi bilan uch kun davom etadigan diniy bayram, ramazon hayiti, katta hayit.

*Iydi qurbon* – ramazon hayitidan 70-72 kun keyin o'tkaziladigan diniy bayram.

*Hayitlamoq* – hayit bayramini nishonlamoq, hayit kunlari sayr qilmoq.

*Hayitlashmoq* – ayn. hayitlashmoq.

*Hayitlik* – hayit munosabati bilan qilinadigan sovg'a; fotihalangan qizning xonadoniga kuyov tomondan yuboriladigan shirinlik va pishiriqlar.

*Hayit-ma'raka* – ayn. hayit.

*Ramazon* arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, qamariya yil hisobida to'qqizinchi oyning nomi, Bu oyda musulmonlar ro'za tutadilar. Xuddi shu oyda Quroni karim nozil bo'lgan.

---

<sup>37</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Beshinchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 484-bet

*Qurbon* arabcha soʻz boʻlib, Oллоh yoʻlida qurbolikka soʻyilgan yoki soʻyiladigan jonliq.

*Qurbonlik* – 1 qurbon hayitida Oллоh yoʻlida soʻyilgan yoki soʻyiladigan joliq.

2 Qurbon hayiti kunlarida xudo yoʻliga jonliq soʻyib xalqqa beriladigan ziyofat.

Qurbonlik marosimi muqaddas diniy kitoblarda, xususan “Injil” va “Quroni karim”da ham oʻz ifodasini topgan. “Qur’oni karim”ning “Kavsar” surasida Muhammad paygʻambarning bobolari Abul Mutallib zam-zam bulogʻining suvi kamayib qolganda, suvni koʻpaytirishni xudodan tilab, oʻz oʻgʻillaridan birini qurbonlikka atagani haqida rivoyat keltiriladi. “Injil”da esa Ibrohim (Avraam) alayhissalom oʻzining chin eʼtiqodini isbotlash uchun toʻngʻich oʻgʻli Ishoq (Isaak) ni qurbon qilishga qaror qilganda, Oллоh uni toʻxtatib, bolaning oʻrniga qoʻchqorni soʻyishni buyurgan. Shunday rivoyat “Quroni karim”da ham keltiriladi. Ibrohim alayhissalom ikkinchi oʻgʻli Ismoilni qurbon qilmoqchi boʻladi.

*Arafa* arab tilidan oʻzlashgan boʻ soʻz “ramazon yoki qurbon hayitidan oldingi kun”, “bayram yoki biror tantanali kun” maʼnolarini bildiradi. Oʻzbek tilida arafa chin arafa, yolgʻon arafa singari ikki turga boʻlinadi. Chin arafa hayitdan oldingi kunni ifodalasa, yolgʻon arafa hayitdan ikki kun oldin boʻlgan kunni bildiradi.

*Arafagarchilik* – hayitning yaqinlashuvi, arafa bilan bogʻliq boʻlgan tashvish-harakatlar.

### **Bob bo'yicha qisqa xulosa**

1. Bayramlar xalqimizning yuksak qadriyatlari ifodasidir. Shuning uchun ham ko'plab bayramlar har yili o'tkazilib kelinadi va an'anaviylik kasb etgan deyish mumkin. Shunday xususiyat kasb etgan bayram nomlariga navro'z, mehrjon singari qadimiy nomlarni, shuningdek, mustaqillik tufayli paydo bo'lgan va xalqimizning yuksak qadriyatlarini o'zida singdirgan bayramlar ham borki, ularning nomlarini ham ushbu tematik guruh tarkibiga kiritish mumkin.

2. U yoki bu millatning tarixidagi muhim voqea-hodisalarni nishonlab o'tkaziladigan bayramlar nomi milliy bayram nomlari tematik guruhi tarkibiga kiradi. Bu nomlarning o'ziga xos jihati shundan iboratki, bu nomlar faqat o'zbek tilida mavjud.

3. Xalqimizda kasblar ko'p. Xalqimiz bejizga "Bir yigitga qirq hunar oz" deb aytmaydi. Ma'lum bir kasb va mutaxassislik egalarining o'z kasbiy bayramlari ham mavjud. Masalan, milliy bayramlar qatorida yuqorida sanab o'tilgan o'qituvchilar va murabbiylar kuni bayram nomi ayni paytda kasb egalariga nisbatan qo'llanganda kasbiy bayramlar tematik guruhi tarkibiga kiradi.

4. Juda qadim zamonlardan buyon o'zbek xalqi hayotida mehnat bilan bog'liq bo'lgan turli marosimlar va bayramlar o'tkazib kelinadi. U.Qoraboyevning e'tiroficha, hozirgi davrda respublikamizda nishonlanadigan bayramlarning asosiy qismini mehnat bayramlari tashkil etadi. Bu esa mehnat bayramlari nomlari tematik guruhiga kiruvchi til birliklari katta salmoqqa egaligidan dalolat beradi.

5. O'zbek tili bayram nomlarining katta qismini madaniyat va sport, jumladan, ilm-fan, ma'rifat, adabiyot, san'at, xalq ijodi, turmush madaniyati, bolalar sporti, xotin-qizlar sporti va boshqa bayram nomlaritashkil etadi. Bu nomlar bayram nomlarining alohida tematik guruhini tashkil etadi.

### **III BOB. O‘ZBEK XALQ BAYRAMLARI NOMLARINING LEKSIK QATLAMLARI, ULARNING STRUKTURASI VA DERIVATSION XUSUSIYATLARI**

#### **3.1. Tarixiylik jihatdan bayram nomlari tasnifi**

O‘zbek tili leksikasining leksik qatlamlari haqida so‘z ketganda ko‘proq ikki qatlam: a) o‘z qatlam, b) o‘zlashma qatlam tushunchalari ajratiladi. Professor E.Begmatov yozganidek, “O‘zbek tilshunosligida hozirda o‘z qatlam va o‘zlashma qatlam terminlarini qo‘llash ancha turug‘un holga kelib qoldi”<sup>38</sup>. Ushbu qatlamga kiruvchi leksik birliklarni tarixiylik jihatidan ham ma‘lum guruhlariga ajratish mumkin:

- a) eski qatlam yoki eskirgan qatlam;
- b) yangi qatlam.

Tildagi ayrim so‘z va atamalar eskirib iste‘moldan chiqib ketishi, ayrim so‘z va atamalar esa yangidan paydo bo‘lib, tilga o‘zlashishi mumkin. Shuning uchun ham hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtai nazaridan eskirgan so‘zlarning barchasi eski qatlam, yangi paydo bo‘lgan so‘zlar yasa yangi qatlamga birlashtirib o‘rganiladi<sup>38</sup>. Bundan tashqari, o‘zbek tili leksikasida zamonaviy qatlam tushunchasi ham qo‘llanib kelinadi. O‘zbek tilida qo‘llanishda bo‘lgan bayram nomlarining aksariyatini zamonaviy qatlamga kiritish mumkin. Quyida ana shu qatlamlarning har biriga alohida to‘xtalishga harakat qilamiz.

##### **3.1.1. Zamonaviy qatlamga kiruvchi bayram nomlari**

O‘zbek tili leksikasining katta qismini, aytish joizki, asosiy qismini zamonaviy qatlamga oid so‘zlar tashkil etadi. Buni biz o‘rganayotgan soha nomlari ham tasdiqlaydi. O‘zbekiston bayramlarini madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan

---

<sup>38</sup> Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. –Toshkent: Fan, 1980. 124-bet.

o'rgangan U.Qorabevning hisobicha, respublikamizda nishonlanayotgan bayramlar yuzdan ortiq bo'lib, bu bayramlarning katta qismi respublikamizning barcha hududlarida nishonlanadi. Demak bu kabi bayram nomlari zamonaviy qatlam birliklari sanaladi. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin: *yangi yil, navro'z, xotin-qizlar kuni, konstitutsiya kuni, urug' qadash bayrami, hosil bayrami, gul bayrami, yosh tabiatshunoslar bayrami, kitob bayrami, san'at bayrami, alifbe bayrami, o'qituvchi va murabbiylar kuni, qushlar bayrami, lola sayli, boychechak sayli, birinchi gul bayrami, qovun sayli, uzum sayli, bilimlar kuni, xotira va qadrlash kuni, folklor bayrami, baxshilar bayrami, qiziqchilar bayrami, palov bayrami, obi non bayrami, kino bayrami, sport bayrami* va boshqalar.

### **3.1.2. Eskirgan qatlamga kiruvchi bayram nomlari**

O'zbek tili lekiskologiyasida eskirgan so'zlar, ya'ni eski qatlamga oid so'zlar asosiy farqli xususiyatlariga ko'ra ikki turga ajratib o'rganib kelinadi:

- a) tarixiy so'zlar yoki istorizmlar;
- b) arxaik so'lar yoki arxaizmlar.

O'zbek tili bayramlari nomlarini ifodalovchi atamalarning ma'lum qismi davrlar o'tishi bilan eskirgan va iste'moldan chiqib ketgan. Ularning nomlari ilmiy manbalarda, o'tmish adabiyotlarida keltirilgan. Eskirgan qatlamga kiruvchi bayram nomlariga quyidagilarni keltirish mumkin: *ayiq bayrami, echki bayrami, sigir bayrami, ot bayrami, romush og'am (otashxonalarda to'planish bayrami), mohirj bayrami, nikh og'am, amexvora (olv tegmagan narsalarni yeyish bayrami), boboxvara (uzumdan tayyorlangan ichimliklarni ichish bayrami), nim sarda (yarim yil), bod amkom, arijosuvon (issiq kiyimlarni yechish bayrami), ajg'or (olovda isinish bayrami), fxbrix (Xorazm podsholarining shahar chetiga chiqib, uni yovdan himoya qilish kuni), azdokandxvor (yog'lik non yopish kuni), chiriruj, mina kechasi, xej, vaxshangom, inga kabilar.*

Eskirgan qatlamga kiruvchi birliklarga sobiq sho'rolar davrida iste'molda bo'lgan *g'alaba kuni, xalqaro birdamlik kuni, oktabr bayrami, sovet armiyasi kuni*

singari nomlarni ham kiritish mumkin. Bu nomlar mustaqillikdan keyin siyosiy tuzumimizdagi o'zgarishlar, mustaqillik tufayli eskirdi va iste'moldan chiqib ketdi.

### **3.1.3. Yangi qatlamga kiruvchi bayram nomlari**

Tilda yangi paydo bo'lgan va yangilik belgisi, ya'ni bo'yog'i sezilib turadigan so'zlar yangi leksik qatlamni tashkil etadi. Bu qatlamga kiruvchi birliklar tilshunoslikda neologizmlar nomi bilan ham atab kelinadi.

O'zbek tili leksikasining uzviy bir qismini tashkil etuvchi bayram nomlarini ifodalovchi leksik birliklar ichida yangilik bo'yog'i mavjud bo'lgan nomlar ham uchraydi.

Respublikamizda *madaniyat kunlari, adabiyot va san'at kunlari yoki haftaliklari, yoshlar o'rtasida tashkil etilgan turli san'at va sport musobaqalari, ko'rik-tanlovlar, ko'cha, mahalla, xonadon bayramlari nomlari, kumush to'y, oltin to'y, olmos to'y, brilliant to'y* singari tadbirlar nomlarida yangilik unsurlari sezilib turadi.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan har bir yil ma'lum bir soha taraqqiyotini ta'minlash maqsadida nom berilishini ko'ramiz. Bu nomlar ham yangi til birliklari sifatida tilimizdan o'rin egallamoqda. Masalan, *oilalar yili, onalar va bolalar yili, shifokorlar va murabbiylar yili, qariyalarni qadrlash yili, sog'lom avlod yili, obod mahalla yili, obod turmush yili* singari nomlar o'zbek tili bayram nomlari bazasini boyitdi.

### **3.2. Bayram nomlarining yasallish xususiyatlari**

Bayram nomlari haqida tadqiqot o'tkazgan U. Islomovning xulosalariga ko'ra, bayram nomlarini ifodalovchi leksik birliklarda so'z yasallish xususiyati o'ta kuchli. Yangi paydo bo'layotgan atamalar, asosan, ikki yo'l bilan yasallishi kuzatiladi:

a) affiksatsiya;

b) kompozitsiya<sup>39</sup>.

O'zbek tili leksikasining boyishida ichki manba, ya'ni so'z yasalishi katta o'rin tutadi. Shunday ekan bayram nomlarini ifodalovchi so'z va boshqa birliklar ham ana shu ichki manba asosida boyishini ta'kidlab o'tish o'rinlidir.

Sohaga oid so'zlarning yasalishida affiksatsiya usuli unchalik faol emas. Juda oz miqdordagi atamalarni yasash uchungina xizmat qilgani kuzatiladi. Masalan, sohaga oid *o'tirish, qo'noq, dorboz, ro'zalik, qurbonlik, hayitlik* singari so'zlarda so'z yasalishini kuzatish mumkin.

Bayram nomlarini ifodalovchi birliklar tarkibiga e'tibor berilsa, ularning aksariyati ikki, uch va undan ortiq komponentlar asosida qurilganini ko'rish mumkin. Bu holat bayram nomlarini yasashda kompozitsiya usuli ustuvorroq ahamiyat kasb etishini ta'kidlashga to'g'ri keladi. Bu xususda tadqiqotchi U.Islomov quyidagilarni yozadi: "Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbekona bayramlarga oid tushunchalarni ifodalash maqsadida, ko'pincha, sintaktik usul bilan hosil qilingan terminlardan foydalanar ekan"<sup>40</sup>. Biz o'tkazgan tadqiqotlar ham buning to'g'riligini tasdiqladi.

Darhaqiqat, bayram nomlari birliklarining katta qismi birikmali asosga ega. Ularni shartli ravishda sintaktik usul (kompozitsiya usuli) bilan yasalgan birliklar deb olish mumkin. Shunday qilsak, birikmalarning yasaliş qoliplarini quyidagicha belgilash mumkin bo'ladi.

SIFAT+OT qolipli birliklar:

a) birlik tarkibidagi birinchi so'z asliy sifat ikkinchisi esa ot bo'lishi mumkin: *yangi yil, qizil gul* kabi;

b) atama tarkibidagi birinchi so'z nisbiy sifat ikkinchisi esa ot bo'lishi mumkin: *xalqaro festival, baxtiyor bolalik* kabi.

2) OT+OT: *oltin to'y, kumush to'y, brilliant to'y* kabi.

3) SON+OT: *birinchi gul, birinchi qadam, birinchi hosil* kabi.

---

<sup>39</sup> Islomov U. O'zbek bayram nomlarining sintaktik usul bilan yasalishiga doir. / Respublika yosh tilshunolarining an'anaviy konferensiyasi tezislari. –Toshkent, 1995. 68-bet.

<sup>40</sup> Islomov U. O'zbek bayram nomlarining sintaktik usul bilan yasalishiga doir. / Respublika yosh tilshunolarining an'anaviy konferensiyasi tezislari. –Toshkent, 1995. 68-bet.

4) OT+FE'L: *urug' qadash, osh tortish, arqon tartish, gul terish kabi.*

5) Izofiy birikmali nomlar: *maslahat oshi, ism to'yi, hosil to'yi, kino bayrami, kitob bayrami, qovun sayli, uzum sayli kabi.*

6) So'z birikmasiga teng nomlar: *yangi yil bayrami, xotin-qizlar kuni, o'qituvchi va murabbiylar kuni, xotira va qadrlash kuni, xalqaro kino festivali kabi.*

7) Gapga teng bo'lgan nomlar: *kelin ko'rdi, kuyov chaqirdi, kelin charladi, qiz chaqirdi, ishchilar safiga qabul qilish, pensiyaga kuzatish kabi.*

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, bayram nomlarini ifodalovchi atamalarining yasashida affiksatsiya usuli kamunum, sintaktik usul esa sermahsul hodisa sanaladi.

### **3.3. O'zbek xalq bayramlari nomlarining strukturasi**

O'zbek tilida qo'llaniladigan bayram nomlari struktural jihatidan rang-barang. O'zbek tili leksikasi struktural jihatdan sodda, qo'shma, juft, taroriy singari guruhlarga ajratib kelinadi. O'zbek tili bayram nomlari esa aynan shunday emas. Jumladan, sohaga oid so'z va boshqa birliklar ichida juft va takroriy birliklar deyarli uchramaydi. Murakkab qurilmali birliklar esa nisbatan ko'proq.

O'zbek tili bayram nomlarini struktural jihatdan quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

a) sodda atamalar (so'zlar);

b) qo'shma atamalar (so'zlar);

v) murakkab atamalar.

Sodda so'zlarga quyidagilarni kiritish mumkin: *navro'z, mehrjon, to'y, bayram, arafa, ramazon, qo'noq, mehmon, qurbon, qurbonlik, hayit, hayitlik va boshqalar.*

Qo'shma (birikmali) atamalar: *yangi yil, yil boshi, birinchi gul, birinchi qadam, birinchi hosil, bilimlar kuni, oltin to'y, kumush to'y kabilar.*

Murakkab atamlar: *xotin-qizlar kuni, o'qituvchi va murabbiylar kuni, xotira va qadrlash kuni, tashabbus ko'rik-tanlovi, shifokorlar va homiylar yili, onalar va bolalarni himoya qilish yili, sog'lom avlod yili, obod turmush yili* kabilar.

### **Bob bo'yicha qisqa xulosa**

1. O'zbek tili leksikasining katta qismini, aytish joizki, asosiy qismini zamonaviy qatlamga oid so'zlar tashkil etadi. Buni biz o'rganayotgan soha nomlari ham tasdiqlaydi. O'zbekiston bayramlarini madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o'rgangan U.Qorabevning hisobicha, respublikamizda nishonlanayotgan bayramlar yuzdan ortiq bo'lib, bu bayramlarning katta qismi respublikamizning barcha hududlarida nishonlanadi. Demak bu kabi bayram nomlari zamonaviy qatlam birliklari sanaladi.

2. O'zbek tili bayramlari nomlarini ifodalovchi atamalarning ma'lum qismi davrlar o'tishi bilan eskirgan va iste'moldan chiqib ketgan. Ularning nomlari ilmiy manbalarda, o'tmish adabiyotlarida keltirilgan. O'zbek tili leksikasining uzviy bir qismini tashkil etuvchi bayram nomlarini ifodalovchi leksik birliklar ichida yangilik bo'yog'i mavjud bo'lgan nomlar ham uchraydi.

3. Bayram nomlari haqida tadqiqot o'tkazgan U.Islomovning xulosalariga ko'ra bayram nomlarini ifodalovchi leksik birliklarda so'z yasash xususiyati o'ta kuchli. Yangi paydo bo'layotgan atamalar, asosan, ikki yo'l bilan yasalishi kuzatiladi:

a) affiksatsiya; b) kompozitsiya.

4. O'zbek tilida qo'llaniladigan bayram nomlari struktural jihatidan rang-barang. O'zbek tili leksikasi struktural jihatdan sodda, qo'shma, juft, taroriy singari guruhlarga ajratib kelinadi. O'zbek tili bayram nomlari esa aynan shunday emas. Jumladan, sohaga oid so'z va boshqa birliklar ichida juft va takroriy birliklar deyarli uchramaydi. Murakkab qurilmali birliklar esa nisbatan ko'proq.

## XULOSA

1. Xalqaro tilda gertonimlar deb nomlanib kelinayotgan leksik qatlam, ya'ni bayramlar, xilma-xil tantanalar, shodlik marsimlari, tuli xursandchilik yig'inlarini ifodalovchi so'z va atamalar o'zbek tilida ko'pligi, serqirraligi bilan ajralib turadi.

2. O'zbekona bayram nomlarining ildizlari uzoq o'tmishlarga borib taqaladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da, qadimdan qolgan rivoyat, afsonalarda bayramlar haqida ilk ma'lumotlar uchraydi. Yirik olim Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolga yodgorliklar" nomli asarida qadimgi bayramlarimiz nomlari to'g'risida bo'lgan ma'lumotlar keltiriladi.

3. Eng qadimgi bayram nomlari haqida fikr yuritilganda ayrim tadqiqotchilar e'tirof etgan zoofagik bayramlarni tilgan olish o'rinlidir. Qadimgi xalqlar o'z totemlariga asoslangan holda turli hayvonlar – ayiq, kiyik, sigir, bug'u, ot, it, bo'ri kabilarga bag'ishlab bayramlar o'tkazganlar. Bu bayramlarning nomlari shu totemlar nomi bilan atab kelingan.

4. Beruniy asarlarida o'rganilgan navro'z, mehrjon bayramlari va ularning nomlari avloddan avlodga o'tib, ardoqlanib kelmoqda. Bu bayramlar bilan bog'liq atamalar tilimizda shunchalik ko'pki, ularni to'lash vatadqiq etish tilshunoslik fanimiz oldida turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi.

5. O'zbekona bayram nomlarini o'zbek tilshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlar va tadqiqot usullari asosida ma'lum tematik guruhlariga ajratib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Soha leksikasiga kiruvchi birliklarni quyidagi tematik guruhlariga ajratib o'rganish maqbul topildi:

- an'anaviy bayram nomlari tematik guruhi;
- milliy bayram nomlari tematik guruhi;
- kasbiy bayramlar nomlari tematik guruhi;
- madaniyat va sport bayramlari tematik guruhi;
- tabiat bayramlari nomlari tematik guruhi;
- diniy bayram nomlari tematik guruhi kabi.

6. Tarixiy taraqqiyot o'zbek tili leksikasining doimiy o'zgarib va yangilanib turishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbek tili leksikasining tarkibiy qismini tashkil etgan bayram nomlarida ham ushbu holatni ko'rish mumkin. Shu tufayli bayram nomlarini zamonaviy, eskirgan va yangi qatlamlarga bo'lib o'rganish sohaga oid leksik birliklar tarixiy taraqqiyoti xususida muhim xulosalar chiqarishga yordam beradi.

7. O'zbekona bayram nomlarini ifodalovchi leksik qatlamlarni tashkil etuvchi birliklar struktural jihatdan quyidagi ko'rinishlarga ega: sodda, qo'shma (birikmali), murakkab.

8. Soha leksik birliklari o'ziga xos yasalar xususiyatlariga ham ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, affiksatsiya usulida yasalar nisbatan kam. Sintaktik usul bilan yasalar esa ancha sarmahsul hodisa sanaladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. Oksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 176 b.
2. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. –Toshkent: O'zbekiston. 1995.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. 56 b.
6. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
7. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-tom. –Toshkent: Fan, 1968.
8. Firdavsiy A. Shohnoma. –Toshkent: Adab. va san'at nashr., 1975. – 52-53-betlar.
9. Islomov U. O'zbekona bayram nomlari haqida//Respublika yosh tilshunolarining an'anaviy konferensiyasi tezislari. – Toshkent: Fan, 1995.
10. Islomov U. O'zbekona bayram nomlarining sintaktik usul bilan yasalishiga doir//Respublika yosh tilshunolarining an'anaviy konferensiyasi tezislari. – Toshkent: Fan, 1995.
11. Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. Uch tomli. 3-tom. –Toshkent: Fan, 1963.
12. Mahmud Sattor O'zbek udumlari. –Toshkent: Fan, 1993. –B. 90-123.
13. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. O'zbek tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2012.
14. Mansurov A. Hayit qachon boshlangan? // Fan va turmush, 1990, 4-son. 28-29-betlar.

15. Navro'zi olam bugun. –Toshkent: O'zbekiston, 1989.
16. Qoraboyev U. Tabiat bayramlari. – Toshkent: Mehnat, 1988.
17. Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari. –Toshkent: O'qituvchi, 1991.
18. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. –Toshkent: Fan, 1986.
19. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Beshinchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
20. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Birinchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
21. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Ikkinchi jild. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
22. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Uchinchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
23. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-tom. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
24. O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. – Toshkent, 1997.
25. Shoabdurahmonov SH., Asqarova M. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. –Toshkent: O'qituvchi, 1980.
26. Белоусов Я.П. Генезис, социальная сущность без религиозных форм празднования. –Алма-Ата, 1971.
27. Лобачева Н.П. Формирования новой обрядности узбеков. –М.: Наука, 1978.